Tahlil va natijalar. Muhammad Rahimxon Feruz nomi bilan bog'liq XX asr birinchi choragidagi adabiy muhit qator o'ziga xosliklarga ega. Ya'ni ushbu davrda ko'p asrlik adabiy an'analar davom etishi bilan birgalikda ma'rifatparvarlik g'oyalari, yangicha fikrlar jadallik bilan kengayib borayotgan edi. She'riyat tobora rivojlandi va undagi mavzu, asosan, ishq-muhabbat va ma'rifatparvarlik edi. Ma'rifatparvarlik g'oyalari, albatta, keyinchalik jadidchilik harakatining yurtimizda keng quloch yoyishiga sabab bo'lgan. O'z azallarida ma'rifat g'oyasini ilgari surgan ba'zi shoirlar ijodidan namunalar ko'rib o'tamiz.

Bir qancha janrlarda ijod qilgan Tabiiy ijodida ham xalqni ma'rifatli qilishga da'vatlar kuzatiladi. Xususan, shoir quyidagi musaddasida yoshlarni vaqtini behudaga sarflamasdan, ilm olishga chaqiradi:

Umring o'tkarma tomoshoi gulu gulshan ila,

Tut barobar onikim oqil esang gulxan ila,
 Chekibon ranju balo borini jonu tan ila,
 Borho ulfat etib sohibi ilmu fn ila,
 Dushman ar qilmasa olamda modoro sen ila,
 Sen madoro qilako'r jahd etibon dushman ila.

1889-yil Xiva shahrida tug'ilgan Muhammad Yusuf Muhammad Yoqub o'g'li Chokar ham xalqni ilmi, ma'rifatli qilish uchun bir qator ishlar qiladi. Chokarning dadasi Muhammad Yoqub Xarrot Xorazmda juda mashhur mashshoq bo'lgan. Chokar o'zbek klassik adabiyoti namoyandalarining ilg'or fikr-tuyg'ularini, qarashlarini davom qildirgan. U demokrat shoir Avaz o'tar bilan zamondosh va yaqin do'st bo'lgan.

Chokarning tashabbusi bilan Xivada musiqa texnikumi — internat tashkil etiladi. Chokar uning direktori bo'ladi va dars beradi. O'sha yillari Chokar Mulla Bekjon Rahmon o'g'li bilan birgalikda xalq musiqasiga doir "Xorazm musiqiy tarixchasi" asar yozishadi, bu asar kitob holida 1925-yilda Moskvada nashr etilgan. Chokardan bir qancha g'azallar ham yetib kelgan bo'lib, u ham boshqa zamondoshlari kabi o'z she'rlarida xalqni savodli bo'lishga, johillikdan qochishga da'vat etadi:

Jahonda yashay olmas hech millat ilmu urfonsiz,
 Aningdekkim turalmas hayotda jism ila jonsiz.

Maorifdur jaholat dardining darmoni, fahm aylang,
 Fanoliq yotgonidur bo'lsa har bir dard darmonsiz.

Imsiz kimsa boylarg'a bo'lub qul, o'tkarur umrin,
 Ilm ahli kishiga bo'lmag'ay muhtoj ham nonsiz.

Bering farzandingiz maktabga, Chokarni so'zin
 tinglab,

Jahonda yashay olmas hech millat ilmu urfonsiz.

Milliy uyg'onish g'oyalari shoir Avaz O'tar she'rlarida ham namoyon bo'ladi. Uning ma'rifatparvarlik mavzusida yozilgan she'rlarida ilgari surilgan fikrlar jadichilik g'oyalari bilan hamohanglik kasb etishini ko'rishimiz mumkin. Bu davrda shoir ilm-ma'rifatga da'vat etuvchi bir talay she'rlar yozgan. Xususan, "Maktab" radifli g'azalida jar yoqasiga kelib qolgan millatni ilm ma'rifatga, maorifga oshno bo'lishga da'vat etadi. Ushbu g'azalda "millati vayronni obod etgusi maktab" deb bejizga aytilmagan. G'azalda xalqning ma'rifatli bo'lishga, ularni bilimli qilishga jon kuydirayotgan shoir obrazi namoyon bo'ladi:

Ochinglar, millati vayronani obod etgusi maktab,
 O'qusin yoshlarimiz ko'nglini shod etgusi maktab.

Dil-u jon birla el maktab ocharga ijthod etsin,
 Nedinkim, bizni g'am qaydidin ozod etgusi maktab.

Xulosa. XX asr boshlaridagi Xiva adabiy muhitida ham asosiy mavzulardan biri ma'rifatchilik g'oyasini ilgari surish ekanligini yuqoridagi misollar va bunga o'xshagan yana ko'plab asarlarda ko'rishimiz mumkin. Bu davr shoirlarining va ziyolilarining asosiy maqsadi xalqni savodli qilish edi. Albatta, ular bunga erishdilar ham. Ularning sa'y-harakatlari bilan yangi usuldagi maktablar ochildi, yoshlarga diniy va dunyoviy bilimlar barobar o'rgatildi. Shu sababli ma'rifatchilar xalqimizning ma'naviy va madaniy jihatdan rivojlanishida muhim o'rin tutadi. O'zlari yashagan davrda ma'rifatchilarning ezgu g'oyalari qoralangan bo'lsa-da, bugungi kunda ular aytgan har bir fikr, har bir g'oya alohida ahamiyat kasb etmoqda va ularga hurmat ko'rsatilmogda.

ADABIYOTLAR

1. Qosimov B.va b. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. –T: "Ma'naviyat", 2004.
2. Mulla Bekjon Rahmon o'g'li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. T.:Yozuvchi, 1998. 12-bet.
3. Alimova D. Jadidchilik mustaqillik davri tarixchisi talqinida. //O'zbekiston tarixi: yangi nigoh. T.: Eldinur, 1998, 4-bet.
4. Полвонниёз Хожи Юсупов. Ёш хиваликлар тарихи. – Урганч: "Хоразм", 2000, 5 б.



Dilnoza MAZLITDINOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti
E-mail: dilnozaannafi@gmail.com

O'zMU professori, f.f.d R.Shirinova taqrizi asosida

RECREATION OF THE NATIONAL CONCEPTUAL SPHERE AND THE NATIONAL CHARACTERS IN THE TRANSLATION WORKS BY HASAN TORABEKOV

Annotation

This article analyzes problems of re-creating the image of national heroes and the original conceptual sphere while translating a work of art from one language to another. We reviewed one of the great works of the famous French writer Stendhal, translated into Uzbek by Hasan Torabekov "The Charterhouse of Parma".

Key words: National conceptual sphere, the image of national heroes, art of word, art of translation, recreation.

ВОССОЗДАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ КОНЦЕПТОСФЕРЫ И ОБРАЗА НАЦИОНАЛЬНЫХ ГЕРОЕВ В ПЕРЕВОДЧЕСКИХ РАБОТАХ ХАСАНА ТУРАБЕКОВА

Аннотация

В данной статье анализируются проблемы воссоздания образа национальных героев и концептосферы при переводе художественного произведения с одного языка на другой. Была рассмотрена одна из великих работ известного французского писателя Стендаля, переведенная на узбекский язык Хасаном Турабековым, «Пармская обитель».

Ключевые слова: Национальная концептосфера, образ национального героя, искусство слова, искусство перевода, воссоздание.

HASAN TO'RABEKOV TARJIMA ASARLARIDA MILLIY KONTSEPTOSFERA VA MILLIY QAHRAMONLAR OBRAZINING QAYTA YARATILISHI

Annotatsiya

Mazkur maqolada badiiy asarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda asliyatdagi kontseptosfera va milliy qahramonlar obrazining qayta yaratilishi, uning to'laqonliligini bera olishdagi muammolar tahlil etiladi. Bunda mutarjim Hasan To'rabekov tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan mashhur frantsuz adibi Stendalning yirik asarlaridan biri "Parma ibodatxonasi" ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Milliy kontseptosfera, milliy qahramon obrazi, so'z san'ati, tarjima san'ati, qayta yaratish.

Kirish. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'zbek tarjimonlari orasida ma'lum bir «ixtisoslashish» ro'y bera boshladi, ya'ni tarjimonlar bir muallifning ijodiga qayta-qayta murojaat eta boshladilar. Shu davrda Buyuk frantsuz yozuvchisi Mari Anri Beyd – Stendalning (1783-1842) Hasan To'rabekov qiyofasida o'zbek tilida tarjimoni paydo bo'ldi. Mutarjimimiz tomonidan adibning ikki shoh asari «Qizil va qora» va «Parma ibodatxonasi» romanlarining o'zbek tiliga tarjima qilinishi tarjimachiligimiz va adabiyotimizda katta voqealardan biri, desak muholaga bo'lmaydi.

Stendal asarlarining poetikasi, ularning falsafiy-axloqiy problematikasi Frantsiya adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega. Stendal o'z asarlarida butun diqqat-e'tiborini nafaqat asar qahramoniga, balki o'zi tasvirlayotgan barcha personajlarga ham qaratadi, ularning taqdiri bosh qahramon taqdiridan kam qiziqirmaydi uni. «Parma ibodatxonasi» romani ham shunday asarlardan biri.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Oxirgi 10 yillarda ilm fanda «kontsept» va «kontseptosfera» tushunchasi katta ahamiyat kasb etib kelmoqda. Buni qator tilshunoslrimiz, adabiyotshunoslrimiz izlanishlarida ko'rishimiz mumkin. «Kontsept» atamasi ilk bor 1928 yilda S.A.Askoldov tomonidan uning «Kontsept va so'z» maqolasida tahlil etilgan. Unga ko'ra «kontsept» bir turdagi ko'plab predmetlarning fikrlash jarayonidagi ongli shakllanishidir [1]. «Badiiy kontsept» tushunchasi ham aynan shu olim tomonidan kiritilgan bo'lib, u badiiy matnlarni kontseptlar prizmasi (tarixiy, ijtimoiy, maishiy, madaniy va adabiy) orqali o'rganish zarurligini aytadi. Bundan tashqari bir qator olimlar,

jumladan, D.S.Lixachev, A.P. Babushkina, Y.YE. Proxorov, V.G.Zusman va boshqalar «kontsept», «kontseptosfera», «madaniy kontsept» va «badiiy kontsept» atamalarini tahlil etganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Ma'lumki, bir asarni asliyatdan ikkinchi bir tilga tarjima qilish tarjimondan katta ma'suliyatni talab qiladi, zero noto'g'ri tanlangan muqobil tarjima asliyatning mazmuniga, uning g'oyasiga putur yetkazishi aniq. «Parma ibodatxonasi» asarida ham boshqa asarlar singari tarjima qilish qiyin bo'lgan iboralarni uchratamiz va o'zbek mutarjimi mazkur muammolarga qanday yondoshganini tahlil etish uchun tarjima asarni uning ruscha muqobili va kezi kelganda asliyat bilan solishtirib tahlil etamiz.

Tahlil va natijalar. H.To'rabekov «Parma ibodatxonasi»ni o'zbekchaga N.Nemchinovanning ruscha tarjimasidan ag'dargan. Uchchala matni (frantsuzcha-ruscha-o'zbekcha) taqqoslash jarayonida ko'pgina mushtarak jihatlar ayon bo'ldi. Hasan To'rabekov asarni tarjimada qayta yaratishda hatto bir qarashda ahamiyatsizdek tuyulgan detallarga ham e'tibor bergan.

Asar qahramoni Fabritsio romannavisning barcha fikrlari, orzu-o'ylarining badiiy ifodasidir. U romanning qator joylarida Fabritsioning frantsuz ekanligiga urg'u beradi. Jumladan, quyidagi misolda:

«У Фабрицио была одна черта, роднившая его с французской молодежью: он серьезно относился к любимой лошади и к излюбленной газете, чем к своей благомыслящей любовнице» [2].

Ushbu jumla o'zbek tiliga quyidagicha o'girilgan:

«Fabritsioning frantsuz yoshlariga xos jihati bor edi: u o'zining yaxshi ko'radigan oti va sevimli gazetasiga andishali ma'shuqasiga nisbatan jiddiyoq munosabatda bo'lardi» [3, 89]. Bu yerda albatta ruscha «черта, роднившая его с французской молодежью» o'zbekcha «frantsuz yoshlariga xos jihat»dan yuz chandon yuqori. «Xos jihat» har qanday odamda bo'lishi mumkin, biroq «роднившая черта» hammada ham bo'lavermaydi.

Asar davomida Stendal frantsuzlar bilan italyanlarni taqqoslab boradi. Ruschada:

«Этот министр, вопреки его легкомысленному виду и галантному обхождению, не был наделян душой французского склада; он не умел забывать горести»[2].

O'zbekcha tarjimasi:

«Yengiltak ko'rinishiga va nazokatli muomalasiga qaramay bu ministning qalbi frantsuz taxlit emasdi: u g'am-g'ussalarni unutilib yuborishni bilmadi» [3].

Bu yerda o'zbek mutarjimi ruscha matndan farqli ravishda italyan ministri «frantsuz taxlit emasdi» deb yozuvli ajratib ko'rsatib, ikki millat vakillari o'rtasidagi farqni yanada bo'rttirib ko'rsatadi.

Jina del Dongo dastlab ministning taklifiga rozi bo'lmaydi. Ruscha matn:

«- А вы понимаете, что предложили мне совершить безнравственный поступок? – сказала графиня». [2, 91]

O'zbekcha tarjimasi:

«- Siz menga odobsiz ish taklif qilayotganingizni tushunasizmi o'zi? – dedi grafinya» [3, 102].

Bu ministr uchun odobsiz ish emas, oddiy holat edi. Ruscha matn:

«- Не более безнравственный, чем все то, что творится при нашем дворе и двадцати других дворах. Самодержавная власть удобна тем, что она все освещает в глазах народов, а раз смешного не замечают, значит, его и нет»[2].

O'zbekcha tarjimasi:

«- Bizning saroyimizda va bo'lak yigirmata poytaxtning saroylaridagi ahloqsizliklar oldida bunisi hech gap emas. Mustabid hokimiyatning shunisi qulayki, u xalqlarning ko'z oldida istagan narsasini tabarruk qilib beradi. Hamonki odamlar kulgili narsani sezishmas ekan, demak u yo'q narsa» [3].

Bu yerda yuqori tabaqa vakillarining, ministrning italyancha dunyosini kuzatishimiz mumkin. Chindan ham italyanlarning dunyosi, ruhiyati frantsuzlarnikidan farq qiladi. Bu haqda Parma shahzodasi Ernesto IV ham gapiradi. Ruscha matn:

«Эрнесто IV часто повторял, что главная цель наказания – потрясти страхом воображение подданных.

- Навеки – это грозное слово, - говорил он, - а в Италии оно пугает еще больше, чем в других странах». [2, 99]

O'zbekcha tarjimasi:

«Ernesto IV o'qtin-o'qtin jazolashdan asosiy maqsad – fuqaroning diliga vahima solishdur, deya takrorladi.

- Umrbod – bu dahshatli so'z, - deguvchi edi u. – Italiyada u odamlarning diliga boshqa mamlakatlarga qaraganda ko'proq g'ulg'ula soladi» [3].

Mutarjim asar qahramonlarining tinimsiz va hayajonli sarguzashtlarini, qochib yurishlarini, ta'qib etilishlarini, kurashlarini ham o'zbek tiliga mohirona ag'dargan, urushning realistik tasvirini to'la saqlay olgan. Unga bu ishda tarjimonga xos sezgirlik, orttirgan tajribasi va nihoyat, ona tilimizning boy imkoniyatlari katta yordam bergan.

Tarjimon romandagi ikkinchi darajali obrazlarni qayta yaratishga ham katta e'tibor bergan. Bu borada ma'lum bir qahramonni ta'riflovchi eng kichik detallarni, nozik nuqtalarni

ham ularga xos bo'lgan barcha atamalar va jargonlar bilan ochib bera olgan. Jumladan, Fabritsioning Napoleon armiyasi ortidan ketishida yo'lda uchragan markitant ayol unga quyidagicha maslahat beradi. Ruscha matn:

«Слушай, если у тебя еще осталось хоть немного золотых кругляшек... тебе, прежде всего надо купить другую лошадь» [2].

O'zbekcha tarjimasi:

«Menga qara, agar... oltin mullajiringdan ozgina qolgan bo'lsa, avvalo boshqa ot sotib olishing kerak» [3, 38].

Keltirilgan misolda tarjimon birgina so'z – mullajiring, ya'ni savdogarlarga xos jargonni ishlatish orqali qahramon nutqining o'ziga xosligini aks ettirgan va butun kontekstni ham ifodalagan.

«Анын контекст – тор ма'nodagi va keng ma'nodagi контекст – tarjimada o'zga tilga mansub so'zlarning ma'nosini berishda, ya'ni ona tilida jumlar tuzish uchun zarur so'zlarni tanlashda hal qiluvchi ahamiyatga egadir». [4, 133] Ona tilida tuzilgan jumla, uning ma'nosi undan oldin va keyin keluvchi jumalarning ma'nosi bilan, butun abzats va parchaning ma'nosi bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Shu sababli «agar jumla kontekst bilan o'ralgan bo'lsa, u o'z ma'nosini (M.Baxtin ta'kid) faqat shu kontekstdagina to'liq saqlaydi. Shuning uchun noto'g'ri tanlangan oddiy bir so'z ham oxir oqibatda asliyatning mazmunini buzib ko'rsatishga olib kelishi mumkin. Natijada bunday tarjima adekvat (to'laqonli) tarjima bo'lmay qoladi. Tarjimaning to'laqonliligi asliyatning ma'no tarkibini to'liq ifodalashdan va unga to'liq funktsional-stilistik muqobillikdan iboratdir» [5, 276]. (tarjimalar bizniki – D.M.)

«Parma ibodatxonasi»ni varaqlar ekanmiz, mutarjim asarning ruscha muqobilidagi «крошить саблями» – «qilichdan o'tkazmoq», «точно бараны бегут» – «xuddi qo'y podasiga o'xshab qochishyapti» kabi iboralar va hatto quyidagicha «Только пошевелись, крышка тебе!» – «Qimir etib ko'r-chi, naq peshonangdan darcha ochib qo'yaman!», «Если заартачишься – пристрелю» – «Agar g'ing desang, otib tashlayman!» singari butun jumalarga ham muvaffaqiyatli muqobillar topganini ko'ramiz.

Xulosa va takliflar. Ma'lumki, bir xalq tilidagi maqol, matal va idiomalarni ikkinchi bir tilga tarjima qilish tarjimondan katta ma'suliyatni talab qiladi, aks holda noto'g'ri tanlangan muqobil tarjima asliyatning mazmuniga, uning g'oyasiga putur yetkazishi aniq. «Tilning asl qaymog'i, uning o'ziga xos xususiyatlarini va tabiatini belgilaydigan, uning kamolot darajasi qanday ekanligini ko'rsatadigan, boshqa tillar o'rtasida tutgan o'rnini tayinlashda muhim omil bo'lgan narsa – undagi maqol, matal, idioma va boshqa shu kabi ko'chma ma'noli birikmalardir. Bunday birikmalarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishning g'oyat murakkab va muhim ish ekanligi bu masalani badiiy tarjima nazariyasining asosiy problemalari qatoriga kiritishga sabab bo'lmoqda» [6].

Mazkur asarda ham boshqa asarlar singari tarjima qilish qiyin bo'lgan maqol va matallarni, turg'un iboralarni ham uchramiz. H.To'rabekov ularni tasvirlanayotgan holatga, voqeaga tayanib ag'dargan. Uning yutug'i – bu faqat tajriba va qobiliyat mahsuli bo'libgina qolmay, balki matn bilan asarning g'oyaviy-badiiy mazmuni, kontseptosferasi o'rtasidagi aloqani to'g'ri tushuna bilish natijasi hamdir. Misol tariqasida romanning turli boblaridan olingan tarjimalarni keltiramiz. Beshinchi bob. Ruscha matn:

«Фабрицио любили в Грианте... и, если б не усердная помощь брата, миланская полиция никогда не обратила бы внимания на его отсутствие» [2].

O'zbekcha tarjimasi:

«Fabritsioni Griantada juda ham yaxshi ko'risharmish... Agar akasi o'lib-tirilib yordam bermaganida, Milan politsiyasi uning g'oyib bo'lishiga hech qachon e'tibor bermasdi» [3].

Sakkizinchi bob. Ruscha matn:

«Граф Моска словно воскрес из мертвых, когда узнал по донесениям шпионов, все эти подробности» [2].

O'zbekcha tarjimas:

«Graf Moska barcha bu tafsilotlarni eshitganidan so'ng o'zini onadan qayta tug'ilgandek his etdi» [3, 140].

To'qqizinchi bob. Ruscha matn:

«Удовольствие отправить этого урода ко всем чертям, наверное, оказалось бы более живучим, чем моя склонность к хорошенькой Мариетте». [2]

O'zbekcha tarjimas:

«O'sha tasqarani joyi rostonga jo'natish istagi go'zal Mariyettaga nisbatan dilimdagi moyillikka qaraganda kuchliroq bo'lib chiqadiganga o'xshaydi...» [3].

Ruschada:

«- Поразмыслите над этим и за добрый совет сделайте нам подарок: зима уже недалеко, купите мне и Мариетте по хорошему салопу из... английской материи...» [2]

O'zbekcha tarjima:

«- Shu to'g'rida bir o'ylab ko'ring va yaxshi maslahatim uchun bizga biror yaxshi sovg'a qiling: qish qilichini yalang'ochlab kelyapti, men bilan Mariyettaga ajoyib ingliz movutidan tikilgan bittadan yaxshi salop olib bersangiz yomon bo'lmasdi». [3, 199].

«Parma ibodatxonasi»ning o'zbekcha tarjimasini ayrim kamchiliklardan ham xoli emas, albatta. Shu o'rinda realiyalarga to'xtalsak.

Realiyalar asliyatning milliy o'ziga xosligini ta'minlaydigan unsurlardan biri hisoblanadi. Asliyatning milliy o'ziga xosligini tarjimada aks ettirish bo'yicha esa turli qarashlar mavjud. Jumladan, V.Rossels o'zining «Tarjima va asliyatning milliy o'ziga xosligi» (Перевод и национальное своеобразие подлинника) maqolasida asliyatning milliy o'ziga xosligi ifodalangan unsurlarni tarjima qilish masalalariga to'xtalib, haqli ravishda milliy turmush tarzini ifodalovchi so'zlar tarjimada o'zgartirishsiz saqlanishini hamda tarjima qilinayotgan tilda muqobillari mavjud bo'lgan so'zlar shu muqobillar bilan almashtirilishini talab qiladi. Jumladan, u rus tilida «господин» va «здравствуй» kabi muqobillari mavjud bo'lgan «batoni» va «gamardjoba» kabi gruzini so'zlarini tarjimada saqlashni ortiqcha deb hisoblaydi va, aksincha, «lavashi» so'zini tarjimada qoldirish kerak deydi, zero bu so'z rus kitobxoniga mutlaqo notanish va yangi milliy o'ziga xoslikni anglatadi [7].

Biz ham V.Rosselsning yuqoridagi fikriga qo'shilamiz. Ruscha tekstga asliyatda yo'q «салоп» so'zini qo'shgan rus tarjimoni N.Nemchinovanning aybi bilan H.To'rabekov ham bu so'zni tarjimada aynan saqlagan va unga izoh berayotib, xatoga yo'l qo'yan. Ruscha nusxada o'qiymiz:

«- Поразмыслите над этим и за добрый совет сделайте нам подарок: зима уже недалеко, купите мне и Мариетте по хорошему салопу из... английской материи...» [2].

O'zbekchaga «- Shu to'g'rida bir o'ylab ko'ring va yaxshi maslahatim uchun bizga biror yaxshi sovg'a qiling: qish qilichini yalang'ochlab kelyapti, men bilan Mariyettaga ajoyib ingliz movutidan tikilgan bittadan yaxshi salop olib bersangiz yomon bo'lmasdi» [3] deya tarjima qilinish, «салоп»ga «Ayollarning XIX asr oxirida, XX asr boshlarida urf bo'lgan keng paltosi (Tarj.)», [3] deb izoh berilgan. Aslida «Salop - ayollarning XIX asr oxiri XX asr boshlarida urf bo'lgan, qish faslida ustiga tashlab olinadigan, qalin va qimmatbaho matodan keng va uzun qilib tikilgan ust kiyimi» deb izoh berilsa to'g'ri bo'lar edi, deb hisoblaymiz, chunki paltoga yeng tikiladi, ammo salop – bu yengsiz, butun gavdani yopib turadigan uzun yopinchiqdir.

Shu o'rinda marhum tarjimashunos olim G'aybullay Assalomning quyidagi so'zlarini keltiramiz: «Ko'pchilik xalqlarning tillarida qo'lga kiritilgan tarjimashunoslik amaliyotining samaralari hamda muayyanlasha boshlagan tarjima tamoyillari shundan dalolat beradiki, tarjima mo'ljallanayotgan xalq tili uchun yangi tushuncha bo'ladigan ayrim chet so'zlarni o'girmasdan, aynan saqlash ayni muddaodir» [6].

A.V.Fedorov ham tarjimada realiyalarni aks ettirishning yo'llaridan biri transliteratsiya (realiya bo'lib kelgan so'zni bevosita fonetik moslashtirish yoki so'z negiziga o'z tilining qo'shimchalarini qo'shib berish)dir, deb ko'rsatadi [4, 79].

Tarjima matnida o'zbek kitobxoniga tushunarsiz bo'lgan chet so'zlar ko'p saqlangan va ularga izoh berilmagan. Masalan: «rekrut», «paj», «sexin», «botfort», «terek», «divr», «shtallmeyster», «tambur-major», «bayokko», «kanonik», «kanonissa», «yeparxiya» va boshqalar.

H.To'rabekov asar matniga so'zma-so'z emas, ijodiy yondoshgan. «Dialektikaning oddiygina bir antiqasi shuki, mavjud originalga yaqinlashmoqchi bo'lsang imkon boricha undan, uning lug'at qobig'idan uzoqlashu, asl-mohiyati, fikr, uslub, nafasatini tarjima qil. Tarjimada harfni harf bilan emas, balki qayta-qayta takrorlaymanki, tabassumini tabassum, musiqasini musiqa, ruhiy nafasatini ruhiy nafasat bilan gavdalanitirish kerak» [8, 79-80]. Shu nuqtai nazardan H.To'rabekov amalga oshirgan ushbu tarjima asarga yaxlit qarab, mutarjim tarjimada ba'zi kamchiliklarga yo'l qo'yganiga qaramay, asosan asarning kontseptsferasi, undagi g'oya, personajlarning kechinmalari, ularning qalbidagi isyoni va o'sha davr ruhiyatini ochib bera olgan va kitobxonga tushunarli tarzda yetkazgan, deya olamiz.

ADABIYOTLAR

1. Аскольдов С. А. Концепт и слово // Русская словесность. М., 1997.
2. Стендаль. Пармская обитель. Роман. Перевод с французского Н.Немчиновой. – Т: Медицина, 1985.
3. Стендаль. Парма ибодатхонаси. Рус тилидан Х.Тўрабеков таржимаси. – Т.: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1985.
4. Федоров А.В. Основы общей теории перевода. -М., 1983.
5. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. -М., 1986.
6. Саломов Ф. Макол, матал ва идиомалар таржимаси. -Т., 1961.
7. Россельс В. Перевод и национальное своеобразие подлинника // Вопросы художественного перевода. - М., 1955.
8. Чуковский К. Высокое искусство. - М.: Искусство, 1964.



Yulduzxon MAHMUDOVA,
Toshkent moliya instituti Iqtisodiyot fakulteti 2-bosqich talabasi
E-mail: mahmudovaulduz706@gmail.com

TMI "Bank ishi" kafedrası PhD. Maqsudov Bunyod taqrizi asosida

“THE LITERARY BRIDGE OF ABDULLAH QAHHAR: ABOUT THE ACTIVITIES OF THE CRITIC, OBSTACLES AND HIS ROLE IN IMPROVING STORIES”

Annotation

This article is an in-depth study of Abdullah Qahhar's work in the field of criticism, focusing on his role in improving works despite the obstacles he faces for speaking truthfully about the situation of his time. The article details Abdullah Qahhar's contributions to literary analysis, emphasizing his influence on improving and enhancing the quality of storytelling in a cultural context both in his time and to this day, as his sayings are an example to be followed by many writers of the present time. Through his critical acumen, Qahhar becomes a key figure in shaping and elevating the narrative landscape, ultimately contributing to a deeper understanding of literature.

Key words: Rare talent, literary critical activity, brave guardian of literature, significant works and research, writer's memory, criteria of aesthetic thinking, the highest goal of poetry, schematism and stereotypes.

“ABDULLA QAHHOR ADABIY KO'PRIGI: MUNAQQID FAOLIYATI, TO'SIQLAR VA UNING HIKOYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI O'RNI HAQIDA”

Annotasiya

Bu maqolada Abdulla Qahhorning tanqid sohasidagi ijodi chuqur o'rganilib, o'z davrining holatini rost gapirish yo'lida duch keladigan to'siqlarga qaramay, uning asarlarini takomillashtirishdagi o'rni haqida so'z olib boradi. Maqolada Abdulla Qahhorning adabiy tahlilga qo'shgan hissasi batafsil bayon etilgan bo'lib, uning o'z davrida ham, bugungi kungacha ham madaniy kontekstda hikoya qilish sifatini yaxshilash va yuksaltirishga ta'siri alohida ta'kidlanadi, chunki uning so'zlari hozirgi zamonning ko'plab adiblariga o'rnatilgan bo'lishi kerak. Qahhor o'zining tanqidiy ziyrakligi orqali hikoya manzarasini shakllantirish va yuksaltirishda asosiy shaxsga aylanadi va adabiyotni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Nodir iste'dod, adabiy-tanqidiy faoliyat, adabiyotning jasur posboni, salmoqli asarlar, tadqiq etish, adib xotirasi, estetik tafakkur mezonlari, abiyotning oliy maqsadi, sxematizm va qolipbozlik.

«ЛИТЕРАТУРНЫЙ МОСТ АБДУЛЛЫ КАХХАРА: ПРО ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ КРИТИКА, ПРЕПЯТСТВИЯ ТАКЖЕ ЕГО РОЛЬ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ РАССКАЗОВ»

Аннотация

Данная статья представляет собой глубокое исследование деятельности Абдуллы Каххара в сфере критики, уделяя особое внимание его роли в улучшении произведений, несмотря на препятствия, с которыми он сталкивается из-за правдивой речи о ситуации того времени. Статья подробно описывает вклад Абдуллы Каххара в литературный анализ, подчеркивая его влияние на совершенствование и повышение качества повествования в культурном контексте как в свое время, так и до сих пор, так как его изречения являются примером для подражания многих писателей нынешнего времени. Благодаря своей критической проницательности Каххар становится ключевой фигурой в формировании и возвышении повествовательного ландшафта, что в конечном итоге способствует более глубокому пониманию литературы.

Ключевые слова: Редкий талант, литературно-критическая деятельность, отважный хранитель литературы, весомые труды и исследования, писательская память, критерии эстетического мышления, высшая цель поэзии, схематизм и шаблонность.

Adabiy san'atning shakllanishi va takomillashtirishida tanqid hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tanqidiy baholar, hoh rasmiy sharhlar, hoh ilmiy tahlillar, hoh tasodifiy munozaralar adabiy asarlarning kuchli va zaif tomonlari haqida bebaho ma'lumotlar beradi. Tanqidning adabiy san'at rivojidadagi ahamiyatiga chuqurroq kirib borar ekanmiz, uning adabiyot taraqqiyoti va qadrlanishiga bo'lgan chuqur ta'sirini o'rganishimiz mumkin. Abdulla Qahhor yozuvchi sifatida o'zbek tilini nozik his etuvchi va uning boy imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanuvchi qalamkash edi. U o'zining nasriy asarlarida ham, komediyalarida ham tildan foydalanish va ona tilining cheksiz imkoniyatlarini namoyish etishning ajoyib namunalari berdi va o'z ijodi bilan o'zbek adabiy tilining kamol topishiga ulkan hissa qo'shdi. Abdulla Qahhorning adabiy va publitsistik faoliyati og'ir davrga to'g'ri keldi – qat'iy senzura zulmi, ijod erkinligi yo'qligi. Ammo, shunga

qaramay, u qattiq va samarali ishlashga muvaffaq bo'ldi. Barcha asrlarda badiy-estetik tafakkur rivojida adabiy tanqid – “Ilmi naqd” ning muhim o'rni va ahamiyati e'tirof etiladi. Navoiy, Tolstoy va Gorkiy, Oybek va Abdulla Qahhor, Shayxzoda va Simonov kabi Nodir iste'dod sohiblari badiiy ijodda beqiyos yuksaklikka erishish bilan birga tanqid va adabiyotshunoslik rivojiga ham ulkan hissa qo'shgan buyuk ijodkorlardir. Belinskiy “tanqid haqida nutq” maqolalarida ta'kidlaganidek, adabiyot va tanqid doimo bir-biri bilan qo'l ushlab boradi va bir maqsadga xizmat qiladi. [3] Navoiy an'alarini davom ettirgan Qahhorning adabiy-tanqidiy faoliyati ham ezgu maqsadlarga qaratilgan. Qahhorning barcha adabiy-tanqidiy maqola va taqrizlarida milliylikka va so'z san'atiga alohida e'tibor qaratilganligi ham ibratli jihatlardan biri hisoblanadi.

Agarda Abdulla Qahhor hikoyalarning matniga shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, favqulodda o'xshatishlar juda ko'plab topiladi. U o'xshatishlarning bu turi o'zining ta'sirchanligi va yorqinligi bilan alohida ajralib turadi. Ularda originallik, obrazlilik, ekspressivlik hamisha yorqin ifodalangan bo'ladi.

Bunday o'xshatishlar o'zlarining jozibadorligi, yorqinligi, emosionalligi, favqulodda faktlari bilan xar kandy o'quvchini hayratlantiradi, o'ylantiradi. Chunonchi, "Ko'r ko'zning ochilishi" hikoyasidan parcha: "Ikki og'iz haqiqatni sizlarga yetkazish uchun go'shtimni tanimdan randa bilan shilib tashlansa, suyaklarimni ming bir chigirikdan o'tkazsa xam mening orqamda qolganlar sevinadi". [6] Qahorning tanqidchilik faoliyati o'zining mazmundor ko'lamini, rang-barang shakli bilan o'zining ijodi kabi ibratlidir.

Adabiyotimizning Abdulla Qahhor e'tiboridan chetda qolgan biror jiddiy muammo, voqea-hodisasi yo'q desak, mubolag'a bo'lmaydi. "Yozuvchining vazifasi - yaxshi asarlar yozish, xalq dilining tarjimoni bo'lish bilan birga adabiyotni har qanday balo-qazodan qo'riqlash, adabiyotning sergak, jasur posboni bo'lish ham uning vazifasiga kiradi". Bu - munaqqid ijodining muhim asosi. Abdulla Qahhor tanqidchilikning xilma-xil janrlarida faol qalam tebratdi. Uning bu sohada me'rosi orasida yuksak saviyada yozilgan o'nlab maqolalar, hozirgacha ham o'z qiymatini yo'qotmagan taqrizlar, adabiyotimizning dolzarb muammolariga bag'ishlangan nutq va subatlar, shuningdek, xat-yozishmalar va mushoxadalar xazinasini bo'lgan yon daftarlari ham o'z ichiga oladi. "Sarob", "Nutq" va "Quyushqon" singari asarlari adibning adabiy-tanqidiy qarashlarini o'rganishda ham qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotshunosligimizda Abdulla Qahhor hayoti va ijodini o'rganishga bag'ishlangan, ijodini bosqichma-bosqich takomillashtirish, badiiy mahorat kabi jihatlarini qamrab olgan keng ko'lamli taqqidiotlar mavjud. So'nggi yillarda Abdulla Qahhor tavalludining 80 va 100 yilligi munosabati bilan salmoqli asarlar yuzaga keldi. Jumladan, M.Qushjonov, O.Sharafiddinovning ko'p yillik ijodiy izlanishlari samarasi ularoq "Abdulla Qaxxor maxorati" va "Abdulla Qahhor" asarlari (1988) va bir guruh mualliflarning rus tilidagi "Abdulla Qahhor va uning badiiy olami" (1989) nomli monografiya. Bulardan tashqari yozuvchi zamondoshlarining "Abdulla Qahhor zamondoshlari xotirasida" (1987) to'plami, taniqli tarjimon tanqidchimizning umr yo'ldoshi Kibriyo Qahhorovanning qayta nashr etilgan "Chorak asr hamnafas" (2007) risolasi xam Abdulla Qahhor hayoti va ijodini hamda adib shahsi va mashhur asarlarining ijodiy tarixini o'rganish bobida muhim manba vazifasini o'taydi.

Ayniqsa, atoqli adib va yirik adabiyotshunoslarimizning xotira va maqolalari jamlangan "Adabiyotimiz faxri" (2007) va adib arxivi qo'lyozmalari asosida tayyorlangan "Abdulla Qahhor: shaxs va ijodkor" (2013) to'plamlar va M.Qo'chqorovanning "Abdulla Qahhor istiqloq adabiyotshunosligi ko'zgasida" (2018) asari bu sohada izlanishlar samarali bo'layotganidan guvohlik beradi. [8] Akademik B.Nazarovning yangi talqin va yondashuvlarga asoslangan "Abdulla Qahhor badiiy haqiqati" maqolasidagi fikrlari e'tiborga loyiq: "Qahhor ijodini yanada chuqurroq, teran, ayniqsa, jahon adabiyoti kontekstida va mahorat sir-asrorlari negizida mustaqillik davrining erkin xolis mezonlari asosida o'rganish va taqqid etishning yangi ikkinchi bosqichi boshlanmoqda. Qahhor iste'dodi qudratining rang-barang qirralarini uning o'ziga munosib ravishda keng va atroflicha ochish masalasida biz, tanqidchilar adib hotirasi oldida doimo qarzdormiz".

Adib ijodiga yangicha yondashuv samarali bo'layotgani va bir qator asarlari badiiylikning yuksak mezonlari asosida chuqur tahlil etilayotganligiga birgina hikoyasi talqini misolida ishonch hosil qilish mumkin.

Adabiyotshunos Dilmurod Quronovning ta'kidlashicha, yirik adabiyotshunoslarimiz tomonidan 1970-yillar hikoyalari ichida eng yaxshisi sifatida e'tirof etilgan "Daxshat" (1960) qissasi nafaqat 1970-yillarni, balki burilish davrini ham o'zida aks ettirgan teran asardir. [4] yozuvchi hayoti va shu davrdagi ruhi: "XX asr o'zbek adabiyoti haqidami, milliy nasrimiz taraqqiyoti haqidami, hikoya janri yoki hunarmandchilik masalalari haqidami, jiddiy nazar tashlasangiz, siri "Daxshat" albatta tilga olinadi va turli talqinlarga bardosh bera olgani va yo'l qo'ygani ilhom bilan yozilganidir".

Abdulla Qahhor adabiyot rivoji yo'lida beg'araz xizmat qilishi, ayniqsa, yosh shoir va yozuvchilarga ijodning katta yo'lga tushib olishida xayrixohlik bilan yordam berishiga katta umid bildiradi. Qahhor iste'dodli munaqqidlarni quvvatlab, ularni adabiyotimiz rivoji yo'lida faol, xolis va jonkuyar bo'lishga rag'batlantiradi. Misol uchun adibning O.Sharafiddinov iste'dodi haqida 50 yillar avval aytgan bashoratomuz fikrini keltirish mumkin: "Ozod Sharafiddinov adabiy tanqidchilikka yonib kirdi va hozirgacha u mana shu fazilatni saqlab qoldi. Unda haqiqat ruhi, demokratik ruh, erkinlik ruhi kuchli." [1]

Shu bilan birga Qahhor ijodining muhim tarmog'i bo'lgan adabiy-tanqidiy faoliyati yetarli darajada o'rganilmagan. Adibning adabiy-tanqidiy me'rosini o'rganish - nafaqat ulkan ijodkor siymosi va uning badiiy-estetik olamini to'la tasavvur etishga yordam beradi, balki XX asr o'zbek adabiyoti, tanqidchilik va adabiy-estetik tafakkur tarixi, tadirijiy taraqqiyot yo'li va omillarini ham kengroq o'rganishga imkon beradi. Qahorning taqriz-maqolalari bugun ham beqiyos ahamiyat kasb etishi bejiz emas. Ustozning Said Axmad, Ma'rufning ilk asarlari haqidagi taqriz va maqolalari U.O'ljaboev, B.Karimov kabi adabiyotshunoslar ta'kidlaganidek, adabiy tanqidning yetuk namunalari bo'lishi bilan yosh adiblarga ijod sirlarini anglatib, adabiyotimiz ravnaqi yo'lida ta'sirchan omil bo'lib kelmoqda [7]. Ular "yozuvchilik mahoratining eng muhim jihati bo'lgan inson ruhiyatini chuqur yoritish, badiiy til va tasvir, janr hususiyatlari" kabi jahon adabiyotshunosligining asosiy adabiy-nazariy muammolarigacha qamrab olganligi bilan ham o'zining dolzarbligini yo'qotmay keladi.

Qahhor, eng avvalo, adabiyotimiz va tanqidimizni jahon estetik tafakkur mezonlari asosida rivojlantirish, iste'dodli ijodkorlar, talabchan tanqidchilar qatorida turishga intiladi. Ayni vaqtda, istedadli tanqidchi va adabiyotshunoslarimiz e'tiborini ham adabiy jarayon va so'z san'atining dolzarb muammolarini hal etishga yo'naltirishda vakolatli shaxsiga aylandi. Shu munosabat bilan adabiyot va tanqidchiligimiz tarixining ayrim muhim voqea-hodisalaridan bugungi kun uchun zarur saboqlar chiqarish ham o'rinli bo'ladi. Abdulla Qahhor yetuk munaqqid sifatidagi ibratli faoliyati, ulkan iste'dodi va yorqin shaxsi bilan adabiy-estetik tafakkur olamini boyitish va rivojlantirishda qanchalik muhim o'rin tutishi, adabiy jarayon va tanqidchilik saviyasiga ijodiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini namoyon eta oldi. "Adabiy tanqid asarga xalq manfaatlari, xalq talablari nuqtai nazaridan baho beradi, buning uchun asarni mazmun jihatidan xam, shakl jihatidan xam chuqur tahlil qilib, fazilat va nuqsonlarini ochib beradi. Tanqid adabiyotni olg'a suradigan kuch bo'lishi bilan yoshlar uchun maktab vazifasini o'taydi. Afsuski, yoshlarimiz ana shu katta maktabdan mahrum deyish mumkin."

Abdulla Qahorning bunday ibratomuz nutqlari, turli yillari yozilgan taqriz va maqolalaridan uning adabiy tanqidchilikka qanchalik ma'suliyat bilan munosabatda bo'lganligini tasavvur qilish mumkin. Darhaqiqat, Abdulla Qahhor ijodi va shaxsini chuqur o'rgangan va uni zukko ustoz deb bilgan O.Sharafiddinov ta'kidlaganidek, adib tanqidchilikni adabiyotga va yozuvchilarga madad beruvchi qudratli kuch deb bilgan. Ayni vaqtda, tanqidchining yozuvchiga,

uning iste'dodiga bo'lgan samimiy munosabati Qahhor uchun juda muhim edi. Ya'ni tanqidchi yozuvchiga va uning ijodiga go'yo "tajriba qilinayotgan quyonday qaramasligi" kerak.[2] Abdulla Qahhorni tashvishlantirgan yana bir muammo-bu tanqidchilarda tahlil san'ati, adabiy asarning o'zidan kelib chiqib fikr yuritish mahorati etishmasligidir. Adabiy jarayonni chuqur tushunolmaslik va tahlil eta olmaslik oqibatida ayrim tanqidchilar asarga adib g'oyaviy-badiiy niyati va ijod qonuniyatlari asosida emas, sxematizm va qolipbozlik talablari bilan yondashadi. 30-40 yillarda keng tus olgan bunday illatlari tandiqchilik va adabiyot rivojiga ham katta to'siq bo'lgani ayon edi.

Qahhor ham insonni har tomonlama, to'laonli va jonli qilib tasvirlash adabiyotning oliy maqsadi ekanligini

qayta-qayta ta'kidlagan: "Men mutlaqo aminmanki, inson qanday bo'lishi kerak, qanday bo'lmasligi lozim ekanini, yozuvchi qalbini chuqur joylarigacha ko'rsatadigan ikki sahifalik chinakam proza biz uchun pala-partish, lekin ustaroq so'zlar bilan yozilgan "silliq" asardan ko'p darajada foydaliroqdir." [5]

- Abdulla Qahorning vatandoshi ekanligimizdan faxrlanamiz, - deydi jurnalist va tarixchi Sulaymonqul Azimov. - Uning durdonalarini o'zbek tilida yozgani bizni faqat quvontiradi. Zero, ikki tillilik xalqlarimiz vakillari uchun odatiy hodisadir. Bizga ma'lumki, Markaziy Osiyoda ikki tilda: tojik va o'zbek tillarida ijod qilgan shoir va yozuvchilar ko'p bo'lgan - Alisher Navoiy, Nodirabegim(Maknuna), Sadrididdin Ayniy ...

ADABIYOTLAR

1. 1.Salaev, K. B. Abdulla Qahhor — talantliiy rasskazchik / K. B. Salaev. — Tekst : neposredstvenniy // Molodoy ucheniy. — 2017. — № 3 (137).
2. Adabiy-estetik tafakkur tadriji: An'anaviylik, vorisiylik, o'ziga xoslik. Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor va Tog'ay Murod Iodi misolida / Qosimov Usmon/108bet
3. Abdulla Qahhor zamondoshlari xotirasida./2019/32b
4. Abdulla Kaxxor xikoyalarining xususiyatlari T.Almamatov/2018 29bet
5. A.Qahhor. Tanlangan asarlar (2-jild) Otabek Jo'raboev 125bet
6. O'zbek adabiy tanqidi tarixi/Baxtiyor Nazarov, Shoiraxmedova, Kurdosh Qahramonov.-2015/89-bet.
7. Adabiyot nazariyasi/Umurov X. 2002
8. Adabiy tanqid va ijodiy jarayon Qayumov L. //Sharq yulduzi 2002
9. https://www.bbc.com/uzbek/news/story/2007/09/070916_abdulla_kahhar
10. https://kitobxon.com/oz/yozuvchi/abdulla_qahhor



Nodira MUSTAFAYEVA,

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti O‘zbek va chet tillari kafedrasida o‘qituvchisi

E-mail: nodira197605@gmail.com

Renessans ta'lim universiteti dotsenti, f.f.f.d. (PhD) N.Khursanov taqrizi asosida

GRAMMATICAL SPECIFICITY OF THE LANGUAGE OF SHAROF BOSHBEKOV'S WORKS

Annotation

Sharof Boshbekov's works have their own characteristics. The unique feature of his works is that he used simple sentences effectively. In order for the work to be impressive and understandable, the creator has achieved a natural and effective description of the dialects of the characters of the work in a dialogical manner, by using words appropriately to express the inner experiences of the character in order to interest the reader.

Key words: Language, expression, grammatical aspect, writer, simple, sentence, work, creator, method, hero, author, short story.

ГРАММАТИЧЕСКОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ЯЗЫКА ПРОИЗВЕДЕНИЙ ШАРОФА БОШБЕКОВА

Аннотация

Работы Шарофа Бошбекова имеют свои особенности. Уникальной особенностью его творчества является то, что он эффективно использовал простые предложения. Для того, чтобы произведение было впечатляющим и понятным, автор добился естественного и эффективного описания диалектов героев произведения в диалогической форме, используя слова, уместно выражающие внутренние переживания героев чтобы заинтересовать читателя.

Ключевые слова: Язык, выражение, грамматический, аспект, произведение, писатель, простое, предложение, создатель, метод, герой, автор, рассказ.

SHAROF BOSHBEKOV ASARLARI TILINING GRAMMATIK JIHATDAN O‘ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya

Til hodisalarini tadqiq yetishning yangi sohalarlari tobora rivojlanmoqda. Kognitiv tilshunoslik, korpus lingvistikasi, psixolingvistika, sosiopragmatika kabi sohalar dunyo tilshunosligida ulkan tadqiqot obyektiga aylanib ulgurdi. Pragmatika insonning ijtimoiy faoliyatini o‘zida qamrab olgan nutq jarayoni, muayyan aloqa vaziyati orqali namoyon bo‘ladi. Lingvistik pragmatika aniq shakl, tashqi ko‘rinishga ega emas. Muallif Sh.Boshbekov asarlari asnosida tilning pragmatik xususiyatlarini tahlil qilgan. Eng muhimi xorij va o‘zbek tilshunoslari ilmiy manbalariga tayanib muallif ilmiy izchillik asosida xulosalarni taqdim etadi. Maqolani chop etish maqsadga muvofiq.

Kalit so‘zlar: Til, ifoda, grammatik jihat, yozuvchi, sodda gap, asar, ijodkor, usul, qahramon, muallif, kinoqissa.

Kirish. Sharof Boshbekov asarlarida o‘ziga xos jihatlari bor. Asarlarining o‘ziga xos jihati shundaki, sodda gap turlaridan unumli foydalangan. Ijodkor asarning ta’sirchan, tushunarli bo‘lishi uchun asar qahramonlarining shevalaridan diolog tarzda, kitobxonni qiziqtirish uchun qahramonning ichki kechinmalarini ifodalashda so‘zlarni o‘z o‘rnida maqsadga muvofiq tarzda qo‘llay olish orqali tabiiy va ta’sirchan tasvirlab berishga erishgan.

Sharof Boshbekov asarlari tilining grammatik jihatdan o‘ziga xosligi shundan iboratki, tilning taraqqiyoti yozuvchi-ijodkorlar va olimlari say-harakatiga bevosita bog‘liq. Tadqiqotchilar tilning nazariy asoslari bilan shug‘ullanishsa, ijodkorlar undan foydalanish asnosida yangicha ifoda usullari, ta’bir joiz bo‘lsa, ayrim vositalarni yaratishga ham muvaffaq bo‘ladi. Har bir ijodkor tildan o‘ziga xos tarzda foydalanadi. Xususan, dramaturg Sharof Boshbekovning ham o‘ziga xos yondashuvi bor. Buning amaldagi ifodasini “Temir xotin”, “Falakning gardishi” asarlari tahlil qilish orqali kuzatishimiz mumkin. “Temir xotin” asarida shunday o‘rinlar bor: “QO‘CHQOR. «Sal-pal»mish! Yechilmayotganidan ham biluvdim, sening qo‘ling tekkanini! Mol arqonlab o‘rganib qolgansan-da, bog‘lagan tuguningni matroslar ham yecholmaydi! E, qarashvormay ket! Bo‘pti, kechirdim, qo‘lni bo‘shat.

Qumri «yo‘q» deganday bosh chayqaydi.

Bu uyda men kimman o‘zi, a? (Baqirib.)
Qo‘chqormanni yo Qo‘chqormasmanmi?! Qo‘chqorman!!!
(Birdan past tushib.) Qo‘chqor ekan, deb bog‘lab

tashlayveradimi?.. Sho‘ri bor odam ekanman o‘zi... (Yana baqirib.) Hech bo‘lmasa, suv ber, ichim yonib ketyapti! (Sh. Boshbekov. “Temir xotin” asari)

Avvalo, Sharof Boshbekovning tildan foydalanishdagi o‘ziga xos jihati bu – uning sodda gap turlaridan samarali foydalanish mahoratida. Ayrim ijodkorlar badiiy asarda uzundan uzoq bir necha ergash gapli murakkab qo‘shma gaplarni qo‘llaydi, natijada fikr chalg‘iydi. Sharof Boshbekov sodda gaplardan unumli va maqsadli foydalana oladi:

U telbanamo kayfiyatda bir nimalarni pichirlar, nogoh to‘xtaganicha bir nuqtaga tikilib qolar, ozgina shovqindan ham cho‘chib tushardi. U katta ko‘chadan ketib borarkan, "Binafsha kafesi" degan yozuvga ko‘zi tushdi. "F" qarfi qiyshayib qolgan. Kallasida beixtiyor "Binafsha kafesi", "Binafsha kafesi" degan o‘y charx ura boshladi. Chaqaloqning endi rostakam qorniochdi shekilli, yana g‘ingshiy boshla (Sh. Boshbekov. “Falakning gardishi” asari).

Matnda asar qahramonlarining asli yashash hududini ko‘rsatish maqsadida ularning nutqida ayrim sheva elementlari ham saqlab qolinadi:

QO‘CHQOR (sevinib). Yaxshi debsiz, Alomatxon!
Tarbiya bergan ota-onangizga rahmat! Rakatoping! Yo‘q, shu kiyimingiz ham yaxshi-yu, endi, o‘zingizdan qolar gap yo‘q, bu yog‘i qishloqchilik... Yuring, uyga kirib ko‘raylik-chi, xotinning ko‘ylak-po‘ylagi bormikan. E, anovi ketib qolgan xotinning-da! Qani... (Uyga taklif qiladi. Uning ketidan qarab.) Bay-bay-bay, jannat, jannat! Shu, jannatdagi huru g‘ilmonlar aslida o‘zimizning zovudlarda tayyorlanib, keyin

o'sha yoqqa jo'natiladimi, deyman-da... (Ichkariga kirib ketadi.) (Sh. Boshbekov. "Temir xotin" asari)

Sharof Boshbekov bir bosh bo'lakli sodda gaplardan ko'p foydalanadi. Bu o'zbek tili nutq tabiatiga mos holatdir. Boshqa flektiv tillarda ega mavjud bo'lmasa, kesimning o'zi gapni tashkil qila olmaydi. O'zbek tilida esa kesimning o'zi gapni tashkil qilaveradi, nutq vaziyatiga ko'ra fikr ifodalay oladi: Yog'och to'sinlar orasidan oynasi darz ketgan romli surat topib oldi.

Unda Shavkat, xotini Surayyo va uch-to'rt yoshlardagi o'g'li—

Botir kulib turishibdi.

Suratni qo'lida ko'targanicha, negadir, u yoqdan-bu yoqqa izillab yugura boshladi. So'ng holdan toyib, umidsizlik bilan o'tirib qoldi.

Hovli burchagida o'g'lining uch g'ildirakli velosipediga ko'zi tushib, fig'oni battar falakka chiqdi.

Aqlan ozadigandarajaga yetdi. (Sh. Boshbekov. "Falakning gardishi" asari).

Matnning o'quvchiga tushunarli va ta'sirchan bo'lishi matnning morfologiyasi bilan ham bevosita bog'liq. Muallif asar matnida bu vaziyatda nisbatan olmoshlardan ko'proq foydalangani kuzatildi:

"OLIMJON qutining qopqog'ini ochgan edi, u yerda, qo'g'irchoqqa o'xshab ketadigan, nihoyatda go'zal qiz turardi. Badaniga silliq, yaltiroq mato tortilgan.

QO'CHQOR (hayratdan og'zi ochilib). Vo-o!..OLIMJON (faxrlanib). Qalay?

QO'CHQOR (birdan). E-e, odamning boshini qotirasana!

Magazinning oynasiga kiyim kiyg'izib qo'yadigan-ku bu

OLIMJON (xafa bo'lib). Yetti yillik mehnatim bu! «Magazin»mish-a! (Sh.Boshbekov."Temir xotin" asari)

Keltirilgan misoldan ko'rinib turibdiki, ajratib ko'rsatilgan so'zlar olmosh so'z turkumiga mansub bo'lib, o'ziga xos ma'no va vazifa bajarishga xizmat qilgan. So'z turkumlarining qo'llanilish chastotasi, bizningcha, nutq vaziyati va fikr mavzusi bilan bevosita bog'liq bo'ladi.

Diologik nutq aks etgan matnlarda olmoshlarning nisbatan ko'proq ishlatilishi tabiiy, masalan:

QO'CHQOR. Xiz... Xizmat yo'q... (Karavotga ishora qilib.) Qani, buyoqqa o'ting, Alomatxon...Yo'q, yo'q, ko'rpachaga, ko'rpa-chaga...

ALOMAT.(karavotning bir chetiga qimtinibgina o'tirib).

Rahmat, yaxshi o'tiribman.

Qo'chqor haliyam o'ziga kelolmas, lekin og'zi qulog'ida — go'yo yuzida kechagi tabassum qotib qolganday edi. Kashfiyotining unga shu qadar ta'sir etganidan Olimjon ham xursand.

OLIMJON. Bo'lmasa, Qo'chqor aka, siz bemalol gaplashib o'tiravering, men narsalarimni joylashtiray. O'sha hujra bizniki-da, a?

QO'CHQOR. (beixtiyor «sizlashga o'tib). Iye, so'rab o'tirasizmi, o'zingizning uyingiz-ku, Olimtoy!..

Olimjon yig'ma karavot, sumka va boshqa anjomlarini ko'tarib, ichkariga kirib ketadi.

(Anchadan keyin.) Ha-a... Zap kelibsiz-da... (Dovdirab.) Ichkarida muzday ayron bor, bir kosagina olib chiqaymi? (Sh.Boshbekov."Temir xotin"asari)

So'zlovchining o'z fikr-mulohazalari, his-tuyg'ulari ifodalangan matnlarda olmosh so'zlar deyarli ishtirok etmaydi: OLIMJON. Kechirasiz-u, Qo'chqor aka, odam degan og'ziga nima kelsa qaytarmay gapiraveradimi! Nima deyatganingizni tushunyapsizmi? O'zbek qayoqda-yu, qo'y qayoqda! E, tavba... (Kuyinib.) (Sh.Boshbekov."Temir xotin" asari)

Kinoqissa janriga mansub asarlar, ayniqsa, Sh.Boshbekov qissalari matnida yuklamalardan modal munosabatlarni ifodalashda ustalik bilan foydalaniladi:

To'satdan Shavkatning g'azabi qaynab, yig'lamsiraganicha baqira ketdi:

Nega tashlab ketarkanman, a, nega tashlab ketarkanman! Axir bu yorug' jahonda shundan boshqa hech kimim yo'q-ku!.. O'ylab gapiryapsizmi, qanday tashlab keta-a-ay?! hamshira uning bunchalik kuyinishini kutmagan edi — qo'rqib ketdi. (Sh.Boshbekov. "Falakning Gardishi" asari)

Ajratib ko'rsatilgan til birliklaridan anglashilib turibdiki, demak, suhbat tarzidagi nutqiy vaziyatlarda yuklamalarning faol qo'llanilishi alohida pragmatik mazmunning ta'minlanishiga xizmat qiladi.

Tavsifiy-tasviriy matnlarda esa sifat so'z turkumiga doir so'zlarning keng va faol ishlatilishi ham o'ziga xos pragmatik maqsadga erishuvning muhim omili sanaladi.

"Dom"ning ikkinchi qavatidagi Shavkatning uyi. Xonadon sohibining unchalik boy bo'lmasa ham o'ziga to'q yashayotgani ko'rinib turibdi: yerda cho'g'day gilamu, shipda billur qandil. Javonda antiqa idish-tovoqlar. To'rda televizor, ustida o'sha oynasi darz ketgan surat. Hatto dahlizga ham qip-qizil gilam poyonoz to'shalgan.

(Sh.Boshbekov. "Falakning Gardishi" asari)

Kuzatilganidek, tavsifiy xarakterdagi matnlarda muallif matn orqali adresatga o'z qahramonining ichki va tashqi sifatlarini belgi bildiruvchi so'zlarni o'z o'rnida maqsadga muvofiq tarzda qo'llay olish orqali tabiiy va ta'sirchan tasvirlab berishga erishgan.

Kinoqissalarning o'ziga xos jihati shundaki, ularda tavsif va tasviriylik ancha ustun bo'ladi. Bu kabi holatlarda yozuvchining aniqlovchi va izohlovchi so'zlarga murojaat qilishi talab qilinadi. Rassom chizmoqchi bo'lgan manzarasiga ranglarni tanlab olgani kabi badiiy matn muallifi ham shu nutqiy vaziyat, nutqiy aktga monand til birliklarni tanlaydi, tafakkurda ularni saralaydi, qaysi so'z qaysi nozik ma'noni anglata olishini chamalaydi, nihoyat, kommunikativ maqsadga muvofiq jumla tuzadi. Natijada asar muvaffaqiyatli chiqsa, o'quvchi undan ta'sirlanadi, zarur xulosalarni chiqara oladi, mulohaza qiladi. O'quvchi mulohaza, mushohada qilishi uchun u tasavvur qila olishi kerak. Kinoqissalar adresatga xuddi shu imkoniyatni yaratib beradi. Matnni o'quvchi maktab o'quvchisi bo'lishi, umuman, kitob o'quvchi, rejissyor yoki rolni ijro etuvchi aktyor bo'lishi mumkin, shuning uchun so'zlovchiga, yozuvchiga oson bo'lmaydi, asar muvaffaqiyatli chiqishi uchun mazkur adresatlarning hammasini nazarda tutishi, ularga tushunarli bo'ladigan til vositalarini qo'llashi, muhim nutqiy aktlarni yaratma olishi lozim bo'ladi.

Matnlarda turli turkum so'zlarining faol va o'z o'rnida qo'llanilishi ham alohida kommunikativ va pragmatik maqsadlarning ta'minlanishida juda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, aniqlovchi vazifasida deyarli barcha mustaqil so'z turkumlari kela oladi, biroq qaysi biri qaysi holatlarda ta'sirchan ifodani ta'minlashi mavhum. Shu o'rinda quyidagi matnga diqqat qilamiz: Muhtasham xonada Shavkat shifanerdan kiyim-kechak, tortmadan har xil taqinchoqlarni olib kelib, stoldagi choyshabga tashladi. Ora-sira derazadan hovliga mo'ralab qo'yishni ham unutmayapti.

Narigi xonadan katta sumka ko'tarib olgan Jamshid chiqdi.

(Sh.Boshbekov. "Falakning Gardishi" asari)

Ajratib ko'rsatilgan so'zlar, ta'kidlangani kabi, sifat so'z turkumiga mansub bo'lib, birgina o'rinda harakat belgisini ifodalovchi ravish so'z ishtirok etmoqda. Misoldan ayonki, xususiyat, holat bildiruvchi sifatlar tavsifiy matnlarda ko'proq qatnashishi va uzatilayotgan axborotning ta'sirli bo'lishini ta'minlab berishi tabiiy.

Shu o'rinda so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi muloqot jarayonida til birliklarining ishtirokini misollar orqali

tahlil qilishga harakat qilamiz: QUMRI.«Hukumat ichmanglar, deb qaror chiqarib qo'yibdi, bu ahmoqqa shuyam ta'sir qilmaydi», dedilar.

QO'CHQOR. Hoo, qarorniyam bilarkanlarmi! O'zi sakkizinchi sinfda qolib ketgan! Chalasavod! Rasmi yo'q ekan, deb gazit o'qimaydi!

QUMRI.O'zingiz ham o'qimaysiz-ku?

QO'CHQOR.Men vaqtim yo'qligidan o'qimayman, u savodi yo'qligidan o'qimaydi! Safar-ku, mayli. Sen-chi, sen? Shuncha gapni eshitib, qanaqa qilib chidab turding? Eringni shularga talatib qo'yaverdingmi? E, seni xotin qilib yurgan menga ming rahmat-ye! Xo'p, soldatlar nima deyishdi?

QUMRI. «Ras, duva, vzali» deyishdi.

QO'CHQOR. Nima-li?

QUMRI.«Vzali».

QO'CHQOR.«Vzali», o'qimagan! «Raz-dva»mish! Nima, armiyada faqat ikkigacha sanashni o'rgatar ekanmi? Bir munday, yuz-yuz ellikkacha sanamaydimi, men o'zimga kelib olmayman-mi! Sulayib yotgan bokschigayam o'ngacha sanaydi-ku, shunchalik ham bo'lmadikmi? Mayli, bo'lar ish bo'пти, qo'lni yech.

(Sh.f Boshbekov. "Temir xotin" asari)

Muloqot shakli diolog bo'lgani sababli matnda otlardan keyingi faollik olmoshlarga, keyingi o'rin fe'l so'z turkumiga tegishlidir. Demak, mazkur vaziyatda harakat emas, shaxs yoki shaxsiyat muhimroq.

Matnda so'z tartibi masalasini ham e'tibordan qochirmaslik kerak. Zero gapdagi so'zlar tartibining o'zgarishi ham ko'plab uslubiy-ekspressiv o'zgarishlarga olib keladi. Fikrning muayyan nuqtasi urg'ulansa, matn mazmuni boshqa tarafdagi o'zgarishi ham mumkin.

Sharof Boshbekov asarlari matnlarida yordamchi so'z turkumlaridan ham samarali foydalanilgan. Quyidagi parcha misolida muallifning yordamchi so'zlardan foydalanish mahoratiga guvoh bo'lamiz, asarning badiiy qimmatini oshirishda, badiiy niyatning o'quvchiga tushunarli tarzda bo'lishini ta'minlashda yordamchi so'zlarning matn tarkibidagi o'rni va ahamiyati masalasiga to'xtalsak. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga diqqat qaratamiz:

OLIMJON . Axir bu odam emas-ku, Qo'chqor aka, temir-ku, negatushunmaysiz?! Ichi to'la sim, plastmassa,

yarim o'tkazgichlar! Bu —mashina! E, gapiraveradimi har narsani! Ertaga sinovdan o'tolmasa-yu, buzib tashlasam nima bo'ladi? Bir uyum temir qoladi!

QO'CHQOR.Ha endi, buzmang-da, Olimtoy. Shunday narsani buzsangiz, uvoli tutib, qo'lginangiz akashak bo'p qolmaydimi! E-e, yetganlar bor, yetmaganlar bor... Xo'p de, Olimtoy, dil ketdi-da endi. Senga nima, bu bo'lmasa boshqasini yasab olaverasan, bizga o'xshagan so'qqaboshga qiyin... (Bechorasifat.) yolg'izlik yomon, Olimtoy, buni boshiga tushgan biladi...

(Sh. Boshbekov. "Temir xotin" asari)

E'tibor berilsa, matnda yordamchi so'zlardan faqat yuklamalar qo'llanilgan. Ko'makchi ham bog'lovchi ham qo'llanilmagan. Yuklamalar nutq jarayonida boshqa yordamchi so'zlarga nisbatan faol qo'llaniladi. Ta'kidlash kerakki, ko'pchilik yuklamalar nutq jarayonida Qo'chqor va Alomat tomonidan nisbatan ishlatilgan. Pragmatik munosabatlarning aksariyati ham shu yuklamalar orqali yuzaga chiqarilgan, chunki ular taxmin, gumon, so'roq, taajjub, ta'kid, tasdiq, ayirish va chegaralash, o'xshatish kabi bir qator modal ma'nolarni yuzaga keltiradi. Shu jihatdan ham bu o'rinda mazkur yordamchi so'z turi ahamiyatlidir. Bizningcha, matni biriktiruv bog'lovchilarisiz tasavvur qilish mumkin, ammo nutqning shakllanishi va fikriy ifodalar qo'shimcha ma'no va munosabatlarni ifodalovchi yuklamalarni taqozo qilib turadi.

Qissada grammatik vositalar so'zlashuv uslubiga mos tarzda beriladi:

Qissada asar qahramoni qaysi kasbda faoliyat ko'rsatsa, o'sha sohaga doir atamalar ham faol ishtirok etadi, bu esa bu kabi asar matnlarida ot so'z turkumiga doir so'zlarning ustuvorlik kasb etishini ta'minlaydi. Umuman, qissada nutq vaziyatiga qarab turli o'rinlarda turli morfologik birliklar faol qo'llanishda bo'lganligi kuzatiladi. Bu holat esa so'z turkumlarining qo'llanilish chastotasiga doir tadqiqotlarning yanada asosli xulosalari uchun xizmat qiladi, ya'ni qaysi so'z turkumlari qaysi nutqiy vaziyatda uyushganroq, faolroq bo'lishi haqida muayyan xulosalarni taqdim qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 24 maydagi PQ-2993-sonli Qarori // "Xalq so'zi" gazetasi. – Toshkent, 2017 yil 25 may.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
3. Boshbekov Sharof "Temir xotin", "Falakning gardishi" asarlari. Toshkent-2016.
4. Jo'rayeva B. Maqollarning lisoniy mavqei va ma'noviy-uslubiy qo'llanilishi: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Samarqand, 2002. – 24 b.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jildlik. 1-jild. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 680 b.
6. Xudoyberganova D.S. O'zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini: Filol. fan. dokt. ... diss. – Toshkent, 2015. – 135 b.
7. Xolmurodova M. Xalq maqollari tarixi va ularning sotsiopragmatik talqini // Xalqaro turk dunyosi tadqiqotlari Simpoziumi. Ilmiy maqolalar jildi. – Baku, 2019. – B. 273-276.
8. Xolmurodova M. Milliy ma'naviyatning rivojlanishida xalq og'zaki ijodining o'rni (maqollar misolida) // Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy hamkorlik istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2020. – B. 447-454.
9. G'iyosov S. O'zbek tilida subyektiv baho sifatlarining semik tahlili // O'zbek tili va adabiyoti. 1986. – № 2. – B. 28-30.
10. Hakimov M. O'zbek tilida matnning pragmatik talqini: F.f.d. Diss. – Toshkent, 2011. – B. 94.



UDK: 81.1(2).

Gulbahor NABIYEVA,
ADCHTI nemis tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasida o‘qituvchisi
E-mail: Guli1119@gmail.com

ADCHTI, PhD, dots. O.A'zamov taqrizi asosida

G.G'ULOMNING “SHUM BOLA” ASARI TARJIMASIDAGI TAFOVUTLAR XUSUSIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada badiiy tarjimaning murakkabligi va qiyinlik darajasi va unga kora badiiy ijod xususida fikr yuritiladi. Badiiy asarlar tarjimasini uchun til bilishning o‘zi kifoya qilmaydi, buning uchun ijodkorlik istedodi va badiiyat ilmidan xabardor bolish kerakligi ta’kidlanadi. Realistik tarjima, tarjimon asl nusxasi, sa’nat asari sifatidagi shakli va mazmun birligini haqida mulohazalar qilinadi.

Kalit so‘zlar: Murakkablik, ijodkorlik, ish sifati, til, original versiya

REGARDING THE DIFFERENCES IN THE TRANSLATION OF G. GHULAM’S WORK “SHUM BOLA”

Annotation

This article reflects on the complexity and difficulty level of artistic translation and artistic creativity. It is emphasized that knowing the language is not enough for the translation of works of art, for this it is necessary to be aware of the talent of creativity and the science of art. Realist translation, the translator's original version, the quality of the work of art, and the unity of the content are considered.

Key words: Complexity, creativity, quality of the work, the language, original version

ПО ПОВОДУ РАЗНОГЛАСИЙ В ПЕРЕВОДЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ Г. ГУЛАМА “ШУМ БОЛА”

Аннотация

В данной статье размышляется о сложности и уровне сложности художественного перевода и художественного творчества. Подчеркивается, что для перевода произведений искусства недостаточно знать язык, для этого необходимо осознавать талант творчества и науку об искусстве. Учитываются реалистический перевод, оригинальная версия переводчика, качество художественного произведения и единство содержания.

Ключевые слова: Сложность, креативность, качество работы, язык, оригинальная версия.

Kirish. Badiiy tarjima o‘z murakkabligi va qiyinlik darajasiga ko‘ra badiiy ijod bilan deyarli bir mavqeda turadi desa ham bo‘ladi. Sababi muallifning iste’dodi va mahorati mevasi bo‘lgan asarni umuman boshqa til vositalari bilan asliga muvofiq qilib qayta yaratish kerak bo‘ladi. Badiiy asarlar tarjimasini uchun til bilishning o‘zi kifoya qilmaydi, buning uchun ijodkorlik istedodi va badiiyat ilmidan xabardor bo‘lishi talab qilinadi. Realistik tarjima talablariga ko‘ra, tarjimon asl nusxasini sa’nat asari sifatida shakl va mazmun birligini qayta yaratish, milliy va individual xususiyatlarni saqlashi lozim. Har bir badiiy asar bir millat vakil tarafidan yoziladi va unda, albatta, milliylik bo‘ladi. Shunga ko‘ra, tarjimashunoslikda milliy kolorit degan atama mavjud. Badiiy asarda aks etgan milliy xususiyatlari o‘z ichiga oladi. Adabiyotshunoslikda, shuningdek, mahalliy kolorit tushuncha ham bor. Mahalliy kolorit deb biror mahalliy sharoit, urf-odat yoki joyga xos turmush tarzi, peyzaj va til xususiyatlarini badiiy adabiyotda aks ettirishga aytiladi. Shu milliy kolorit bilan bog‘liq bo‘lgan so‘z va atamlar realiyalar, boshqacha aytganda milliy xos so‘zlar deyiladi. Realiyalar asar tilining ajralmas qismi bo‘lib, ular yordamida yozuvchi qahramon obrazini yaratadi, xalqning milliy xususiyatlarini tasvirlab beradi. Ular badiiy asrning milliy koloritini ifoda qilib beradi, turli uchlubiy vazifalarni, hodisa va predmetlarning xususiyatini haqqoniy ochib berishga yordab beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yuqorida tarjimon olim M.Qambarovning keltirilgan fikrlariga qo‘shilgan holda, biz ham tarjima qilish jaryonida, xususan, ikki bir biriga qardosh bo‘lmagan tillarning milliy madaniy etiketlarini hisobga olgan holda, hozirgi kunda tilshunoslar tadqiqotlarini

aynan lingvokulturologik jihatdan tarjima qilish va ularning o‘rtasidagi tafovutlarni bartaraf etish yo‘llarini yechimini izlash va undan go‘zal asar tarjimasini yaratish tarjimon tilshunoslarning muhim masalasi bo‘lib turibdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bir tildan boshqa tilga o‘girilayotgan asrning tarjimasida, tarjimon dastavval, o‘sha mamlakat milliy qadriyatlarini o‘rganib chiqmoqligi darkor bo‘lib qoldi. Albatta, bu yerda tarjimonga millatning milliy koloritini bilishni taqozo etadi. Milliy kolorit tarjimaning asorda tasvirlangan xalqning milliy o‘ziga xosligini aks ettirish kerak-mi? - asarni boshqa milliy zaminga ko‘chirish kerakmi? Degan ikki bir-biriga zid printsipini belgilashda asosiy omil hisoblanadi. Tarjimada til almashinadi, lekin milliylik qoladi.

Tahlil va natijalar. Endi esa quyidagi matnga e’tiborni qaratsak:

Gleich nach dem dritten Gebiet, das genau vor Sonnenuntergang verrichtet wird, schauen wir kurz zu Hause vorbei, schlürften eilig eine Mehlsuppe, einen Eintopf oder verschlangen einen Brei aus Bohnen mit Kürbis, Mungo Bohnensuppe, Reis oder eine Nudelsuppe. Und dann stürmten wir gesättigt wieder nach draußen.

Nomozgar, namozshom o‘rtasi uyga qaytib, atalami, umochmi moshqovoqmi, moshxo‘rdami, ugra oshmi, apir—shapir ichib yana ko‘chaga chopar edik. Nomozgar -[boshqa, boshqa paytdagi namoz; asr namozi] [1] 1. kun botish oldidan o‘qiladigan namoz, besh vaqt nomoning uchinchisi.

esk. kun botish oldidagi payt. Shu kuni namozgargacha urush bo‘lib, Asqar ponsad og‘zidan o‘q yeb o‘libdi. A.Qahhor, “Qo‘shchinor chiroqlari”.

Namozshom- [shom namozi va u o'qiladigan payt] [2]
1. Kun botib, qorong'ilik tusha boshlagan payt, qosh qoraya boshlagan vaqt; oqshom. Tilla boy oldiga qo'yilgan ovqatlarni xo'p yeb olgandan keyin, xuftonni namozdayoq chala-chulpa o'qib olib, darrov uxlab qolar edi. P.Tursin, "O'qituvchi".

2. Kun botgandan biroz keyin o'qiladigan namoz, besh vaqt namozning to'rtinchisi. So'zni kelgan yerida to'xtatib, Hoji bobo iymon bo'lgan holda namozshom o'qishga qo'zg'aldilar. G'ofur G'ulom, "Shum bola". Dili (yoki ko'ngli) namozshom bo'lmoq. Dili qorong'i bo'lmoq, qattiq xafa bo'lmoq, ranjimoq. -Xunuk voqeadan dilim nomozshom bo'lib, xayol surib kelayotgan edim, o'rinboynig so'zlariga uncha e'tibor bermabman, - dedi Kamol. H.Nazir, "Ko'kterak shabadas".

vor Sonnenuntergang - Zeitraum etwa zwischen Sonnenuntergang und Sonnenaufgang, zwischen Einbruch der Dunkelheit und Beginn der Morgendämmerung

Tarjimasi: Tahminan quyosh botish va quyosh chiqishi o'rtasidagi vaqt oralig'i

eine Mehlsuppe - aus Mehl hergestellte Suppe [3]

Tarjimasi: Un mahsulotidan tayyorlangan sho'rva einen Brei aus Bohnen mit Kürbis- einen [dicken, steifen] Gericht aus Bohnen mit Kurbis

Tarjimasi: Loviya bilan qovoqdan tayyorlangan quyuq taom

Bohnensuppe - [dicke] Suppe aus Bohnen [4]

Tarjimasi: Loviyadan qilingan sho'rva(quyuq) eine Nudelsuppe - japanisches Gericht aus einer heißen Brühe und einer speziellen Nudelart; japanische Nudelsuppe[5]

Tarjimasi: issiq sho'rvadan va maxsus lapsha turidan tayyorlangan yapon taomi, yaponcha lapshali taom

O'zbek milliy madaniyatiga xos namozshom - quyosh botishdan odin degan ma'noni bildirib, nomozshom-ma'nosiga to'g'ri kelgan, biroq namozgar-jumlasiga tarjima berilmagan.

Eine Mehlsuppe - atala, einen Eintopf-umoch, [6] Nudelsuppe- ugra osh, Mungo Bohnensuppe- moshxo'rda, Bohnen mit Kürbis- moshqovoq keltirilgan jumalarni tarjimon hammasini ekvivalentini topib ishlata olgan. Unser Wohnviertel grenzte an einer Seite an die Mahalla Tikonlimozor und an der anderen an die Mahalla Kurgantagi. Wir trafen uns meist in den abgelegenen sackgassen, die sich links und rechts von den Hauptstraße befanden und dort vergnügten wir uns, jungen und Mädchen zusammen bis trieft in die Nacht. Es gab verschiedene Spiele zb; Ringkampf, Es ab verschiedene Spiele, Z.B. Ringkampf oder «Botmon-Botmom, Dabei standen die Gegner mit den Rücken zueinander, haktten die Arme ein und hoben den Partner abwechselnd auf den Rucken. Sehr beliebt war auch ein Spiel, das «Die weiße Pappel, die grüne Pappel» hieß. Die Jungen teilten sich in zwei Gruppen auf. Jede von ihnen wählte einen Häuptling, und man nahm einen aus der Gruppe als Rätselfigur. Die anderen sollten die Person erraten. Diejenigen, die die Denksportaufgabe richtig lösten, stiegen auf den Rücken der Verlierer und wurden im Trab bis zu

einem bestimmten Platz getragen. Was gab es noch? Ach ja, «Mindi-Mindi» beispielsweise, oder «Der Dieb ist da», «Das Köpfchen meines Vögelchens» oder Versteckspiel. Das waren alles Abendspiele. Es gab freilich auch anderen zeitvertrieb, den man bei Tageslicht spielen könnte: «Altschik», Ballspiel, «Sumtshallak» nackte Rennwette, Bogenschießen oder dass Pferderäuberspiel. Kurzum wir hatten genügend Möglichkeiten, uns Tag und Nacht zu unterhalten.

Bular hammasi oqshom o'yinlari, kunduzgi o'yinlar boshqacha; har -xil oshiq o'yini, yong'oq o'yini, to'p o'yini, zumchillak, yov-yov, o'q kamalak otish, yalang'och poyga, ot o'g'risi va xakazo. O'talarimizning ko'pchiligi mayda kosiblar, qorovul xodimgar, meshqob, otboqar, hammol, so'fi, folbin arqon tovlaydigan, nag'ora- childirma qoplaydigan, to'qimdo'z, chegachi va xakazo bo'lganliklari uchun ularning qo'lidun hunarlarini olib yoki ularning yoniga ko'makchi bo'lib tushish bizga to'g'ri kelmas edi. Ertadan kech ko'chachangitib, hammaning joniga tegib, kampilardan qarg'ish eshitib, o'spirinlardan kaltak yeb, sandiraklab yuradigan o'yin to'da, bekorchi bolalarmiz.

Die Väter der meisten in unserem Spielkreis waren arme kleine Handwerker, die Kesuselpauken oder Tamburine mit Leder überspannten oder Tischler, Wächter, Diener, Wasserträger, Pferdeknechte, Lastenträger, Sufis, Wahrsager, oder Seiler.

Yuqorida keltirilgan jumalarga e'tiborni qaratsak, yuqorida o'zbek milliy o'yinlarni tarjimasiga nemis tilidagi tarjimalariga muqobillarni tanlaganini tahlil qilish hammaga qiziq, albatta.

Oshiq o'yini- Altschik, yong'oq o'yini- , to'p o'yini- Ballspiel, zumchillak-«Sumtshallak»,yov-yov, o'q kamalak otish- Bogenschießen oder dass Pferderäuberspiel, yalang'och poyga- nackte Rennwette, ot o'g'risi- Pferderäuberspiel.

Keltirilgan o'zbek milliy o'yinlarini tarjimalariga e'tibor bersak, tarjimon milliy o'yinlarni tarjimasiga asl tarjima bera olgan-u, biroq yong'oq o'yini, yov-yov o'yinlarini muqobillarini topolmagan.

Kosiblar- kleine Handwerker, qorovul- Wächter, xodimgar- Diener, meshqob- Wasserträger, otboqar- Pferdeknechte, xammol- Lastenträger, so'fi- Sufis, folbin- Wahrsager, arqon tovlaydigan- Seiler, nag'ora- childirma qoplaydigan- die Kesuselpauken oder Tamburine mit Leder überspannten oder Tischler, chegachi -die Kesuselpauken (singen chinni, sapol idishlarni chegalovchi, yamoq soluvchi)-berilgan so'zlarning tarjimasini tarjimon barcha muqobillarini topib, to'g'ri ishlata olgan, bundan ko'rinib turibdi-ki, bu kabi kasb-hunarlar nemis halqlarida ham borligidan dalolat berib turibdi.

Xulosa va takliflar. Tarjimaning lingvokulturologik tadqiqi ikki madaniyat tilini bir biriga qiyoslab, ularni o'hshash va noo'hshash jihatlarini ko'rsatishdan iborat. Aqliy idrok asosida o'xshatish va farqlay olish qobiliyati yotadi. Lisoniy birlik sifatida turg'un o'xshatishlar millatning dunyoqarashini, idrok intizomini aks ettiruvchi muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Н харфи. -Б.15
2. F.Фулom. Шум бола.Янги аср авлоди нашриёти. 2011.-Б.73
3. G. Gulom.Der Schelm. Akademnashr (July 6, 2020).2020.-S. 101
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.15 b
5. Duden | beten | Rechtschreibung, Bedeutung, Definition, Herkunft
6. V.Xazratqulov M.uslub va tarjima haqida ba'zi kuzatishlar// Tarjima san'ati (Maqollar to'plami).4-kitob.-Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978.265-272-betlar
7. Xrolenko A.T. Osnovi lingvokulturologii. – M., 2006. – 184 s.
8. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiyada madaniyat kodlari tushunchasi va talqini // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2019. – № 3. – B. 15–19.
9. Саломов F. Таржима назариясига кириш. –Тошкент.1978.



Sherdor NAZAROV,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi
E-mail: nazarovsherdor@gmail.com

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, PhD R.Khodjayeva taqrizi asosida

THE ESSENCE OF THE CONCEPT OF LATIFA

Annotation

This article is dedicated to providing extensive information about anecdotes and their essence, their names and definitions in different languages, as well as the structure and types of anecdotes.

Key words: Anecdote, humor, laughter, effect, language, hero, Efandi, stylistic devices, word, word game, genre, folklore.

СУТЬ КОНЦЕПЦИИ ЛАТИФЫ

Аннотация

Данная статья посвящена предоставлению обширной информации об анекдотах и их сущности, их названиях и определениях на разных языках, а также о структуре и видах анекдотов.

Ключевые слова: Анекдот, юмор, смех, эффект, язык, герой, Эфанди, стилистические приемы, слово, словесная игра, жанр, фольклор.

LATIFA TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI

Annotatsiya

Mazkur maqola latifa va uning mohiyati, turli tillardagi uning nomlanishi va ta'riflari, shuningdek, latifaning tuzilishi va turlari borasida keng axborot berishga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: Latifa, xazil, kulgu, ta'sir, til, qahramon, Afandi, stilistik vositalar, so'z, so'z o'yini, janr, folklor.

Har bir xalqning o'ziga xos milliy-madaniy xususiyatlarini ifoda etib turuvchi xalq og'zaki ijodi bo'ladiki, uning xarakteri, belgisi faqat o'sha xalqning o'zigagina tegishli bo'ladi. Ana shunday folklor turlaridan biri latifadir.

O'zbek tilining izohli lug'atida latifaga quyidagicha ta'rif berilgan: LATIFA nazokat, noziklik, oqilona so'z ma'nolarini anglatib, kulgili voqea - hodisa haqidagi kichik hikoyani bildiradi. Toshkentlik mashhur bo'ying xasisligi haqida hali hech kimning qulog'iga chalinmagan latifalar suhbatga rang berib turar edi. Oybek, Tanlangan asarlar[7]. Demak, latifa hayotimizda sodir bo'ladigan qiziqarli voqea-hodisalarni kimgadir so'zlab berish va shu orqali unda kulgili holatni yuzaga keltirish uchun nutqda qo'llanadi.

Turli tillarda latifa ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan latifaning quyidagi ta'riflari berib o'tilgan: bo'yicha hamfikrdirlar: "Латифа – kutilmagan hazil bilan yakunlangan, barcha ona tilida so'zlashuvchilarga ma'lum doimiy personajlar mavjud bo'lgan fantastik voqea haqidagi qisqa hikoya"[8]; "qisqa mazmunan va ixcham taqdimot, ajoyib va kulgili voqea haqidagi hikoya"[2]; "folklor janrlaridan biri, odatda kimnidir yoki biror narsani masxara qiluvchi qisqa yumoristik hikoya; noodatiy hodisa, tarixiy shaxs, afsonaviy qahramon hayotidan qiziqarli va ibratli hikoya"[3].

X.Yusupovanning ta'kidicha, latifa – o'zbek folklorining keng tarqalgan mustaqil epik janrlaridan biri. U hajman kichik, mazmunan lo'nda bo'ladi va bir yoki ikki epizoddan tashkil topadi. O'zbek latifalarining syujetini tashkil etuvchi epizodlar – fosh etuvchi, o'tkir hajv yoki yengil yumor, tanqidiy estetik vazifani ado etadi hamda voqea-hodisa yechimida hal qiluvchi rol o'ynaydi – qahramonning g'alabasini, ayni paytda qarshi tomonning kulgi holatidagi mag'lubiyatini ta'minlaydi[9].

B.Sarimsoqov va F.Yo'ldoshevalarning fikriga ko'ra, "o'zbek xalq latifalarining qahramoni dastlab bir kishi, bir hakim, bir donishmand, bir dehqon, bir darvesh, bir naqqosh,

bir tabib, bir faqir, bir kamabag'al, bir kosib shaxslar siyomosida tasvirlangan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab bu hayoliy qahramon Nasriddin afandi tipiga o'z o'rmini bo'shatib bergan. Bu narsa, bir tomondan, ozarbayjon latifalari ta'sirida yuz bergan bo'lsa, ikkinchi tomondan turk latifalarining o'zbek tiliga tarjima qilinishi, kitobat qilinishi va xalq orasida tarqalishi bilan izohlanadi[6].

Ingliz til madaniyatida shunga o'xshash narsa "hazil", "konserva", "kulgili hikoya" deb ataladi. Fransuzlar esa bunga o'xshash folklor janrini "histoire" (fable, fable) yoki "histoire amusante" (kulgili hikoya), "blague" (hazil) deb atashadi.

Ingliz tilidagi ba'zi manbalarda "anekdot" atamasi biroz boshqacha ma'noga ega, ya'ni afsona va hazilga o'xshash uchinchi yoki birinchi shaxsda aytilgan hikoyaning bir turi[4].

Aksariyat tadqiqotchilar latifalarning etnik hazillar deb ataladigan ko'rinishlarini alohida ta'kidlashadi. Bu turdagi latifalar turli etnik guruhlar vakillari haqida aytilgan latifalar xisoblanadi. "Etnik hazillar" ikki xil bo'lishi mumkin - bir etnik guruh vakillari haqidagi hikoyalar va turli etnik guruhlar vakillarining taqqoslashlarini o'z ichiga olgan hikoyalar. Etnik mavzudagi latifalar janrning eng qadimiy qatlamlaridan birini ifodalaydi. Qadim zamonlardan beri odamlar yangi hududlarni o'rganib, boshqa xalqlar vakillari bilan aloqada bo'lib, doimo, ba'zan o'ylamasdan, o'zlarini boshqa xalqlar bilan o'z madaniyatining tashuvchisi sifatida bog'lashdi.

Ko'pincha o'zbek tilidagi latifa terminining ingliz yoki rus tilidagi muqobili xisoblangan anekdot ham alohida janrga mansub har qanday matn kabi alohida tuzilish, mazmun va shaklga ega. U dunyoning milliy tasvirini aks ettiradi va pretsedent belgilarni o'z ichiga oladi, shuning uchun anekdotni pretsedent matn deb hisoblash mumkin. Anekdotda ikki qismlilik, kirish, denomentning assimetriyasi, tugash oldidan majburiy struktur-semantik to'xtamning mavjudligi kabi tuzilish xususiyatlari mavjud. U quyidagi janr xususiyatlari bilan tavsiflanadi: stereotipik shakl, mazmun va

funksionallik. Stereotipik xususiyatlarning o'zaro bog'liqligi latifani nutq aloqasi janri, nutq madaniyati hodisasi sifatida o'ziga xos xususiyatga ega.

Etnik hazillar tomonidan yaratilgan kulgili effekt ma'lum bir etnik guruh vakillarining haqiqiy va xayoliy xulq-atvor xususiyatlariga asoslanadi. Ba'zi etnik hazillar g'arazli niyatlarisiz, begona madaniyat vakillarini masxara qilish maqsad qilinmagan, boshqalari tajovuzkor va haqoratli bo'lib, ularni irqchilar arsenaliga osongina kiritish mumkin. Ba'zida ularning farqi hazilning tuzilishida seziladi. Ko'pincha uni idrok etish tinglovchiga va hazildagi mavjud ma'noga bog'liq.

Avvalo, latifa pretsedent matndir. D.D.Gudkovning fikricha, "jamiyat pretsedentlari tizimida, bir tomondan, lingvomadaniy muhitning qadriyat yo'nalishlari o'z aksini topsa, ikkinchi tomondan, ushbu tizim tomonidan belgilanadi"[1]. Latifalardagi qahramonlar pretsedent xususiyatga ega, ya'ni ular mifologik etnik tiplar bo'lib, ularga xarakterli tasvirlar, aqliy stereotiplar va kulgili xatti-harakatlar standartlari ommaviy ongda belgilanadi, ular deyarli faqat nutq doirasida adekvat idrok qilinadi.

Anekdotlar ko'pincha "pretsedent vaziyat", ya'ni ma'lum bir ma'nolar to'plami bilan bog'liq bo'lgan va differentsial xususiyatlar shaklida taqdim etilgan vaziyatni o'ylashga asoslanadi. Shunday qilib, etnik hazillarda ma'lum millat vakillari bir xil sharoitda (poezd, cho'l oroli, o'rmonda ov qilish va boshqalar) joylashtiriladi. Shunday qilib, dunyoqarashning milliy idrokini aks ettiruvchi, pretsedent vaziyatni o'z ichiga olinadigan va pretsedent belgilarni o'z ichiga olgan latifani haqli ravishda pretsedent matn deb hisoblash mumkin.

Latifalardagi hazillarni o'rganishda kulgi effektini yaratish vositalariga alohida e'tibor beriladi. Hazilda kulgili effekt yaratishning asosiy usullari - so'z o'yinlari, paradoks, parodiya, alogizm va giperbolizatsiya kabilar xisoblanadi. So'z o'yini - bir so'zning turli ma'nolari (ko'p ma'nolari) yoki tovush jihatidan bir xil yoki o'xshash (paronimiya) turli so'z va iboralarning bir kontekstdagi semantik birikmasiga asoslangan hazil xisoblanadi. Y.Propning "pun - bu og'zaki ayyorlikning natijasidir; u aldangan kutishga asoslangan kulgili effektini yaratadi", degan xulosasi mavjud[5]. Ko'pincha parodiya - bu so'zlovchini masxara qilish uchun nutqning ma'lum xususiyatlarini takrorlash yoki uning muallifini masxara qilish uchun adabiy asarning ma'lum xususiyatlariga taqlid qilishdan iborat bo'lgan nutqiy akt xisoblanadi. Ko'pincha hazillar qahramonlarning talaffuz xususiyatlarini parodiya qiladi. Kulgi effektini yaratishning bu usuli, ayniqsa, ko'pincha etnik hazillarda kuzatiladi. Parodiya zamonaviy hazilning eng muhim xususiyatlaridan biri sifatida uning boshqa barcha janr xususiyatlarini belgilaydi.

Quyida kinoya stilistik vositasini qo'llab kulgi effekti yaratilgan latifaning lisoniy tahliliga e'tibor qaratamiz. Matnda til birliklarini o'ta mubolag'ali qo'llash ham kuchli kinoyaviy kulginini xosil qiladi. Bunday badiiy matnlarning ta'sirchanligi ham yuqori darajada bo'ladi. "Ye, to'nim" sarlavhasi ostidagi latifadagi kinoya stilistik vositasining qo'llanishiga e'tibor qarating:

Afandi bir kuni to'yga borgan edi, uning usti-boshi eski bo'lganligi uchun hech kim e'tibor bermadi. U tezda to'yxonadan chiqib, bir oshnasining yangi kiyimlarini kiyib, yana qaytib keldi. Afandini izzat-ikrom bilan to'riga o'tqazdilar, oldiga turli-tuman noz-ne'matlar keltirib qo'ydilar. Bu ahvolni ko'rgan Afandi ustidagi to'nga xitoban:

- Bu ovqatlardan ye, to'nim ye! - dedi.

Ajablangan odamlar bu so'zning sababini so'rganlarida u:

- Modomiki, butun hurmat, ehtirom yangi to'nga ekan, taomni ham u yesin-da deb javob berdi.

Ushbu latifada kulgi effekti ikkita stilistik vositani qo'llash orqali yuzaga kelgan. Birinchisi, jonlantirish stilistik

vositasi bo'lib, ushbu usul "bu ovqatlardan ye, to'nim ye!" jumlasida qo'llangan. Ikkinchisi esa, kinoya stilistik uslubi bo'lib, u "modomiki, butun hurmat, ehtirom yangi to'nga ekan, taomni ham u yesin-da" jumlasida namoyon bo'ladi.

Latifa matni birlamchi og'zaki shaklda ham, ikkinchi darajali yozma shaklda ham deyarli har doim ikki qismdan iborat bo'lish tamoyiliga ko'ra tuziladi: u kirish (boshlanish) va izohga, yoki boshi va oxiriga ega.

Boshlanish yoki kirish tinglovchini mazmun rejasi bilan tanishtiradi, mavzuni, qiziqishni bildiradi va ma'lum bir kutish keskinligini keltirib chiqaradi. Hazilning boshlanishi batafsil bo'lishi mumkin. Shunday qilib, masalan, latifaning kirishi an'anaviy kundalik ertak qonunlariga ko'ra, hodisaning uch marta (qahramonlar soni va ularning harakatlari bo'yicha) o'zgarishi bilan tuzilishi mumkin. Shu bilan birga, hazilni rad etish, butun matnning davomiyligidan qat'i nazar, har doim qisqa, kutilmagan, ko'pincha paradoksal bo'lishi kerak, bu odatda hazilni kulgili qiladi. Denomentdan oldin, albatta, asosiy pauza bo'lib, u "matni ikkita teng bo'lmagan qismga ajratadi. Bu pauza latifaning ochilishida burilish nuqtasini bildiradi. Shunday qilib, latifa shunchaki kulgili matn emas, balki o'ziga xos tuzilishga va komik effektini amalga oshirishning turli usullariga ega bo'lgan janr pretsedent matnidir.

Latifalar mavzu jihatidan asosan ikki xil turga bo'linadi. O'zbek xalq latifalarining ingliz tiliga tarjimasining lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlarini tadqiq etgan olim U.Yo'ldoshev ham o'zining monografik tadqiqotida latifalarning tematik guruhlanishini ikkiga ajratgan va ular quyidagilar:

Itimoiy - maishiy tipiklashtirish. Bu xildagi tipiklashtirishda Afandi oilaviy hayotda - xotini va bolalari davrasida, qo'ni - qo'shinlar va mahalla-ko'ya tasvirlanadi. Bunday latifalarda kishilar orasida uchraydigan soddalik, no'noqlik, noziklik, kaltafahmlik, ishqoqmas va dangasalik, uddaburonlik va kamsuqumlik, ayyorlik va nodonlik, yuvoshlik va muttahamlik, ochko'zlik va sahiylik kabi hislatlar ustidan kulinadi. Shunga muvofiq Afandi goh o'zgalarga pand bersa, goh soddaligi tufayli o'zi ham pand yeydi. Ijtimoiy-maishiy yo'sinda tipiklashtirish asosida yaratilgan latifalarda yumoristik ruh, samimiy kulgi ruhi yetakchilik qiladi. Ijtimoiy-maishiy planda tipiklashtirilgan Afandi obrazi ushbu to'plamda "Afandi oila davrasida", "Afandi qo'shnilar va o'zgalor orasida", "Afandi do'stlari va ulfatlari davrasida", "Afandi va bolalar" kabi maxsus bo'limlarga ajratib berilgan.

Ijtimoiy-siyosiy tipiklashtirish. Bunday tipiklashtirish asosidagi latifalarda Afandi hukmdorlar, tabib, qozi, imom kabilar bilan munosabatda tasvirlanadi. O'tmishga xos zolimlarning talon-torojlari, itoat etmaganlarning jazolanishi, ilmiy kishilarning xo'rlanishi, diniy aqidalarning zararli ta'siri kabilar latifalarga xos ixcham, lo'nda shaklda aks etgan. O'tmishning mudhishliklari raxna solgan dil dardlari, qalb sadolarini ochiq aytish faqat o'lim bilan yakunlangan davrlar ruhini kelgusi avlodlarga yetkazishda oddiy va ixcham shaklga ega bo'lgan, yengil yumor va zaharxanda ohang bilan yo'girilgan latifa janri juda qo'l kelgan. Bu xildagi latifalar "Afandi dahriy", "Afandi ochko'z boylar va savdogarlar orasida", "Afandi, riyokor tabiblar va o'g'rilar", "Afandi hukmdorlar bilan yuzma-yuz" kabi bo'limlarda berilgan. Latifalarda kundalik hayotda uchraydigan nuqsonlar, eskilik qoldiqlari, poraxo'rlik, chayqovchilik, mas'uliyatsizlik kabi jamiyatimizga yot bo'lgan illatlar "Afandi zamondoshimiz" bo'limidagi latifalarda aks etgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, latifa - inson hayotida sodir bo'ladigan qiziqarli voqealarga asoslangan kichik hikoya bo'lib, u xar bir xalq tilining o'ziga xos tasviriy ifodalari hamda milliy madaniyatini aks ettiruvchi leksik birliklar yordamida yaratiladi va insonlarga kulgi hadya etish

uchun qo'llanadi. Odatda latifalar xalq og'zaki ijodiyoti ezgulik ruhida tarbiyalash maqsadida foydalanadi. namunalari hisoblanib, insonlar ulardan kelgusi avlodni Latifalarning muallifi ma'lum bir shaxs hisoblanmaydi.

ADABIYOTLAR

1. Гудков Д. Д. Теория и практика межкультурной коммуникации. М.: Гнозис, 2003. С. 288
2. Даль В. Толковый словарь живого великорусского языка. М.: Русский язык, 2000. С. 800.
3. Кузнецов И. А. Большой толковый словарь русского языка. 2000. С. 1536
4. Мелетинский Е. М. Избранные статьи. Воспоминания. М.: Прогресс, 1998. С. 533.
5. Пропп В. Я. Проблемы комизма и смеха. М.: Лабиринт, 1999. С. 288.
6. Саримсоқов Б, Йўлдошева Ф. Афанди латифалари. –Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1990. – Б. 6
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти. 2-том, 448-бет.
8. Шмелева А. Д. // Русский анекдот. Текст и речевой жанр. М.: Языки славянской культуры, 2002. С. 40–42.
9. Юсупова Ҳ.У. Ўзбек халқ оғзаки насри намуналарининг инглизча таржималарида миллий колоритнинг ифодаланиши (эртақлар, латифалар мисолида)”. Филол. фан. номз. диссертация. – Т., 2011. – Б.110.



Gulruh NE‘MATOVA,
Alfraganus universiteti “Sharq filologiyasi” kafedrasida o‘qituvchisi
E-mail: gulruh.nematova@mail.ru

F.f.d., professor F.Mo‘minov taqrizi asosida

MATBUOTDA XALQARO TURIZMNI YORITISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada xalqaro turizmning vujudga kelishi va tarixiy taraqqiyotiga oid nazariyalar, turizm va mediani hamohang ravishda o‘rgangan va amalga tatbiq etgan olimlarning asarlari tahlili bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: BST, backpacking, alpinizm, evolyutsiya, tendensiya, innovatsiya, marketing, statistika, konsepsiya.

THEORETICAL-METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF COVERAGE OF INTERNATIONAL TOURISM IN THE PRESS

Annotation

This article describes the analysis of the theories of the emergence and historical development of international tourism, the works of scientists who have studied and implemented tourism and media in harmony.

Key words: BST, backpacking, mountaineering, evolution, trend, innovation, marketing, statistics, concept.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОСВЕЩЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНОГО ТУРИЗМА В ПРЕССЕ

Аннотация

В данной статье описан анализ теорий возникновения и исторического развития международного туризма, работ ученых, изучавших и реализующих туризм и медиа в гармонии.

Ключевые слова: БСТ, backpacking, альпинизм, эволюция, тренд, инновации, маркетинг, статистика, концепция.

Kirish. Turizm mamlakat uchun moliyaviy jihatdan bir qator afzalliklarga ega. Turistik joylar davlatning muhim obyekti hisoblanib, bunday hududlarga hukumat e‘tibori jalb etiladi.

Xalqaro turizm jahon iqtisodiyotida hal qiluvchi rol o‘ynaydi, iqtisodiy o‘sishga, yangi ish o‘rinlari yaratishga va madaniy almashinuvga hissa qo‘shadi. Shu sababli ham xalqaro turizm konsepsiyasi va asosiy jihatlari har tomonlama ko‘rib chiqilgan. U xalqaro turizmning ta‘rifi va evolyutsiyasini o‘rganadi, uning iqtisodiy va ijtimoiy ta‘sirini tahlil qiladi, turistlarning xatti-harakatlariga ta‘sir qiluvchi omillarni muhokama qiladi. Sanoatda paydo bo‘lgan tendensiyalarni yoritadi.

Xalqaro turizm deganda odamlarning dam olish, biznes yoki boshqa maqsadlarda milliy chegaralar orqali harakatlanishi tushuniladi. U turar joy, transport, diqqatga sazovor joylar va o‘yin-kulgi kabi keng ko‘lamli tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Xalqaro turizm konsepsiyasi vaqt o‘tishi bilan globallashtirish, texnologik taraqqiyot va iste‘molchilarning xohish-istaklarining o‘zgarishi kabi turli omillar ta‘sirida rivojlandi. Bir narsani yoddan chiqarmaslik kerakki, xalqaro turizm bugungi kunda o‘zining eng muhim jihatlarni tizimlab bo‘lgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sayohat haqida xotiralarni yozish va o‘qish barcha davrlarda ham qiziqarli bo‘lgan. Bu borada o‘zbek durdonalaridan bo‘lgan Muqimiyning “Sayohatnoma”larini, Abdurauf Fitratning “Sayyohi Hindi”sini aytishimiz mumkin. Jahonning mashhur adiblari tomonidan chop etilgan bir qator kitoblari ham aynan shu mavzuga bag‘ishlanadi. Yoxanna Gartonning “Xaritaning chekkasi: Kristin Boskoffning tog‘dagi hayoti” kitobi tarixdagi eng mohir alpinist ayol Kristin Boskoffning tarjimai holi haqida yozilgan eng mashhur asarlardan hisoblanadi.

Mashhur olimlar Richards va Raymondning fikricha, ijodiy turizm “tashrif buyuruvchilarga kurslarda faol ishtirok etish va o‘rganish tajribasi orqali o‘zlarining ijodiy

salohiyatini rivojlantirish imkoniyatini beruvchi turizm” deb ta‘riflanadi[1]. Ijodiy turizm - bu sayyohlar uchun o‘ziga xos bo‘lgan tadbirlarda qatnashish orqali mahalliy madaniyatni yanada o‘ziga xos tarzda his qilish usulidir.

Ekoturizm barqarorlik, tabiatni muhofaza qilish va jamiyatni rivojlantirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. “Ekoturizm – bu sayyohlarga tabiiy go‘zallikni his qilishning o‘ziga xos va o‘ziga xos usulini taklif etuvchi o‘ziga xos bo‘lgan tendensiya bo‘lib, ularning atrof-muhitga ta‘sirini minimallashtiradi”, - deb yozadi Hayyam, J. va Lyuk[2].

Ta‘lim turizmining fundamental jihati madaniyat, texnologiya, jamiyat bilan bog‘liq boshqa joy va mamlakatlarga tegishli bilimlarni izlashdir. Jahon sayyohlik tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, ta‘lim turizmi “yangi narsalarni, jumladan, tarix, madaniyat yoki tabiiy muhitni o‘rganish maqsadida sayohat qilish” deb ta‘riflanadi[3]. Umuman olganda, medianing aynan turizmning bu klassifikatsiyasi bo‘yicha ahamiyati haqida ko‘plab ilmiy ishlar qilingan bo‘lib, ularning eng mashhurlaridan bir sifatida mashhur olimlar M. A. Rahmon va M. A. Xossainlar tomonida yozilgan “The Role of Media in the Expansion of Educational Tourism” ishini keltirishimiz mumkin. Ilmiy ishda yozilishicha, aynan xalqaro turizmning tarmoqlari ichida eng muhimi aynan ta‘lim turizmi hisoblanib, hozirda dunyo bo‘ylab, 100 mingga yaqin kishi har yili aynan ta‘lim maqsadlarida sayohatlarda qatnashadi[4].

Xalqaro turizmning eng asosiy konsepsiyasi erkin sayohat va turistlarning huquqlarini himoya qilishdir. Xalqaro sayyohlarni himoya qiluvchi bir qancha maxsus tashkilotlar va qonunlar mavjud. Butunjahon Sayyohlik Tashkilotidan tashqari ham bir qator muassasalar bu bo‘yicha faoliyat olib boradi. Bu haqida bir qator mualliflar tomonidan yozilgan “Sustainable attitudes: Protecting tourism with inoculation messages”[5] kitobida batafsil o‘xtalib o‘tiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mashhur xorijiy jurnallardan biri “Lonely Planet” sayohatchilar uchun ajoyib ma‘lumot manbai bo‘lib, unda sayohat yo‘nalishlari, byudjetli sayohat

bo'yicha maslahatlar va jihozlar haqida sharhlar mavjud. "National Geographic Adventure" jurnali esa sarguzashtli sayohat ixlosmandlari uchun ajoyib axborot olamidir. U keng ko'lamlil mavzularni o'z ichiga oladi, jumladan, ochiq havoda sayr qilish, sayohat qilish joylari va jihozlarga sharhlar berib boriladi. Bu yo'nalishda chop etilgan jurnallarning umumiy adadi 50 millionga yaqinlashmoqda.

Yevropa Sayohat Komissiyasining ma'lumotlariga ko'ra, madaniy turizm "odamlarning madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun yangi ma'lumotlar va tajribalar to'plash maqsadida oddiy yashash joyidan uzoqda joylashgan madaniy diqqatga sazovor joylarga ko'chishi" deb ta'riflanadi[6]. Madaniy turizm muzeylar, san'at galereyalari, tarixiy joylarga tashrif buyurish, festivallar va konsertlar kabi madaniy tadbirlarda qatnashish kabi tadbirlarni o'z ichiga olishi mumkin. So'nggi yillarda madaniy turizm tobora ommalashib bormoqda, chunki odamlar noyob va haqiqiy sayohat tajribasini qidirmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarning ko'tarilishi madaniy turizmning mashhurligiga ham hissa qo'shdi. Madaniy turizmning yana bir misoli Yevropa Kengashi tomonidan taklif etilayotgan "Madaniy marshrutlar" dasturidir. Ushbu dastur Yevropa bo'ylab turli mintaqalarni bog'laydigan, ularning umumiy madaniy merosini ta'kidlaydigan marshrutlar tarmog'ini o'z ichiga oladi. Marshrutlar tarixiy joylar, muzeylar va boshqa madaniy diqqatga sazovor joylarni o'z ichiga oladi[7].

Xulosa qilib aytganda, madaniy turizm sayyohlarga mahalliy madaniyatni his qilishning o'ziga xos va o'ziga xos usulini taklif qiladigan o'sib borayotgan tendentsiyadir. Muzeylarga tashrif buyurish, festivallarda qatnashish va darslarda qatnashish kabi madaniy tadbirlarda qatnashish orqali sayyohlar mahalliy madaniyat haqida chuqurroq tushunchaga ega bo'lishlari va unutilmas xotiralar yaratishlari mumkin.

Yangi sayohat imkoniyatlarining rivojlanishi xalqaro turizmning rivojlanishiga ham hissa qo'shdi. Ilgari turizm faqat plyajlar va tarixiy joylar kabi an'anaviy yo'nalishlar bilan chegaralangan. Biroq, ekoturizm va sarguzasht turizmi kabi turizmning yangi turlarining rivojlanishi yangi va qiziqarli yo'nalishlarni boshdan kechirish imkonini berdi. Xalqaro turizmning rivojlanishi dunyoga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Turizm hozirda asosiy iqtisodiy faoliyat turi bo'lib, mezbon mamlakatlarga milliardlab dollar daromad keltiradi. Shuningdek, u ish o'rinlarini yaratadi va madaniy tushunishni targ'ib qiladi.

Turistlarning xususiyatlarini va turizmning turli yo'nalishlarga ta'sirini yaxshiroq tushunish uchun xalqaro turizm tasnifidan foydalanish mumkin. Xalqaro turizm tasnifi turistlarni sayohat maqsadi, transport turi, qolish muddati kabi xususiyatlariga ko'ra turkumlashdir. Ushbu tasnifdan turistlarning motivlari va xatti-harakatlarini, shuningdek, turizmning turli yo'nalishlarga ta'sirini yaxshiroq tushunish uchun foydalanish mumkin. Turistlarni sayohat maqsadlariga ko'ra tasniflash mumkin. Turistlarni havo sayohati, yer usti transporti yoki kruiz kemalari kabi foydalanadigan transport turiga qarab tasniflash mumkin.

Tahlil va natijalar. Butunjahon sayyohlik tashkiloti (BST) sayyoh deganda dam olish, ishbilarmonlik yoki boshqa maqsadlarda odatdagi muhitdan tashqarida kamida bir kechakunduz qoladigan kishi tushuniladi. Xalqaro turizm evolyutsiyasini turli bosqichlar, jumladan, ommaviy

turizmning paydo bo'lishi bozorlarning o'sishi va barqaror turizmning yuksalishi orqali kuzatish mumkin. Shu sababli ham xalqaro turizm ma'lum me'yorlar uzoq yillardan beri rivojlanib keladi.

Butunjahon sayyohlik tashkiloti (BST) Birlashgan Millatlar Tashkilotining mas'uliyatli, barqaror va hamma uchun ochiq turizmni targ'ib qiluvchi ixtisoslashgan agentligidir. Bosh qarorgohi Madridda, Ispaniyada joylashgan. BST 1946-yilda tashkil etilgan bo'lib, 160 ta doimiy davlatlar va 3 ta assotsiativ a'zolarga ega. Uning vazifasi barqaror va hamma uchun ochiq turizmni rivojlantirishga ko'maklashish va rag'batlantirishdan iborat. BST bir qator vakolatlariga ega, jumladan xalqaro turizmning konsepsiyalarini belgilash. Ulardan quyidagilarni alohida ta'kidlash lozim:

- turizm statistikasini to'plash va tarqatish: BST butun dunyo bo'ylab turizm statistikasini to'playdi va tarqatadi. Ushbu ma'lumotlar hukumatlar va turizm korxonalariga turizmni rivojlantirish bo'yicha asoslangan qarorlar qabul qilishda yordam beradi;

- turizm bo'yicha ta'lim va treningni targ'ib qilish: BST butun dunyo bo'ylab turizm bo'yicha ta'lim va o'qitish dasturlarini ilgari suradi. Bu sayyohlik sanoati muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan malakali ishchilarga ega bo'lishini ta'minlashga yordam beradi;

- turizm standartlari va yo'riqnomalarini ishlab chiqish: BST turizmni mas'uliyatli va barqaror rivojlantirishni ta'minlashda hukumatlar va turizm korxonalariga yordam berish uchun turizm standartlari va yo'riqnomalarini ishlab chiqadi;

- turistlar huquqlarini himoya qilish: BST turistlarning xavfsizlik va dahlsizlik huquqi, axborot olish huquqi va hurmat bilan munosabatda bo'lish huquqi kabi huquqlarini himoya qiladi;

- rivojlanish uchun turizmdan foydalanishni rag'batlantirish: BST qashshoqlikni kamaytirish, ish o'rinlarini yaratish va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi rivojlanish uchun turizmdan foydalanishni rag'batlantiradi.

Xulosa va takliflar. Xalqaro turizmning iqtisodiy va ijtimoiy ta'siri ham juda katta. Xalqaro turizm ham mezbon, ham manba mamlakatlarga sezilarli iqtisodiy ta'sir ko'rsatadi. Bu valyuta tushumlari, aholi bandligini oshirish, infratuzilmani rivojlantirish va hududlarni rivojlantirishga hissa qo'shadi. Bundan tashqari, xalqaro turizm madaniy almashinuvni, xalqlar o'rtasidagi o'zaro tushunishni va madaniy merosni saqlashni rag'batlantiradi. Biroq, u ortiqcha turizm, atrof-muhitning buzilishi va ijtimoiy-madaniy buzilishlar kabi muammolarni ham keltirib chiqaradi.

Xalqaro turistlarning tasnifi turistlarning xususiyatlarini va turizmning turli yo'nalishlarga ta'sirini yaxshiroq tushunish uchun ishlatilishi mumkin. Turistlarning yashash muddatini bilish turistlarning ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan turar joy turlarini aniqlashga yordam beradi. Sayohat motivatsiyasini bilish sayyohlarni qiziqtirishi mumkin bo'lgan diqqatga sazovor joylarni aniqlashga yordam beradi. Turistlarning demografik xususiyatlarini bilish turizmga eng ko'p qiziqish bildiruvchi bozorlarni aniqlashga yordam beradi.

Xalqaro turizm tushunchalari va tasniflari turizmning barqaror rivojlanishiga ko'maklashuvchi siyosat va strategiyalarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Richards, Greg and Raymond, C. "Creative Tourism." ATLAS News 23. 2000. 16-b.
2. Higham, J., & Lück, M. Media Coverage of Ecotourism in Australia: A Content Analysis. Journal of Sustainable Tourism, 11(4), 2003. 325–b.
3. "Educational Tourism." World Tourism Organization. Accessed August 28th, 2023. <https://www.unwto.org/our-work/education-and-training/educational-tourism>.

4. Rahman, M. A., & Hossain, M. A. The Role of Media in the Expansion of Educational Tourism. *Journal of Tourism Research & Hospitality*, 6(4), (2017). 3-b.
5. Ivanov, B., Dillingham, L. L., Parker, K. A., Rains, S. A., Burchett, M., & Geegan, S. Sustainable attitudes: Protecting tourism with inoculation messages. *Annals of Tourism Research*, 73, 2018. 26–34-b.
6. Cultural Tourism.” European Travel Commission. Accessed August 28th, 2023. <https://etc-corporate.org/cultural-tourism/>
7. “Cultural Routes.” Council of Europe. Accessed August 28th, 2023. <https://www.coe.int/en/web/cultural-routes/home>



Raxmatulla NORBEKOV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti
E-mail:rnorbekov@gmail.com

Prof.M.S.Tadjibayev taqrizi asosida

PROPORTION OF STYLE AND CREATIVE INTENTION

Annotation

This article talks about the unique style and skill of image creation of the talented writer Isajon Sultan, an active representative of the current literary process. The technique of creating a historical work is researched.

Key words: Style, creative intent, work, analysis, tradition, innovation.

ПРОПОРЦИЯ СТИЛЯ И ТВОРЧЕСКОГО НАМЕРЕНИЯ

Аннотация

В данной статье рассказывается об уникальном стиле и мастерстве создания образа талантливого писателя Исаджона Султана, активного представителя современного литературного процесса. Исследуется техника создания исторического произведения.

Ключевые слова: Стиль, творческий замысел, произведение, анализ, традиция, новаторство.

USLUB VA IJODIY NIYAT MUTANOSIBLIGI

Annotatsiya

Ushbu maqolada hozirgi adabiy jarayaonning faol vakili, iste'dodli adib Isajon Sultonning o'ziga xos uslubi, obraz yaratish mahorati borasida soz boradi. Tarixiy asar yaratishdagi uslub texnikasi tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: Uslub, badiiy tafakkur, asar, tahlil, an'ana, novatorlik

Kirish. Badiiy asarning chinakam ijod namunasi ekani, ijodkorning ijodkorligi, birinchi navbatda, uslubda namoyon bo'ladi. O'ziga xos uslubga ega bo'lmagan yozuvchi yoki shoir munosib darajada e'tirof qozona olmaydi. Shuning uchun uslubiy izlanishlar badiiy tafakkurni yangilash va rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. "Uslub ijodkorning pasportidir", - deb yozadi shoir Shodmonqul Salom. Darhaqiqat, uslub ijodkorning kimligini ko'rsatib turadi, ammo uslubni ijodkor yaratadi. U o'z asarida shaxsiy qiyofasini, aniqrog'i ijodkor sifatidagi "men"ni namoyon etadi. Zero, ijodkorning shaxsiy adabiy o'zligi ko'rinib turmagan asarda, uning uslubi mavjud bo'lmaydi. Fitrat tabiri bilan aytganda "kuchsiz adib – yozg'uvchining asarlarida o'zini ochiq ko'rsata olmaydir. Kuchsiz yozuvchilarning uslublari bir-biriga o'xshab qoladir" [1].

Adibning mahorati uning uslubida ko'rinadi, aks holda u boshqalarning takrorlovchisidir. Ammo "Uslub faqat o'zlik bilan cheklanmaydi, u faqat individual belgilarning yig'indisi emas. Unda albatta, o'zlikni vujudga keltirgan, o'stirgan ijtimoiy muhitning ta'siri bo'ladi, unda shaxsiylik va umumiylik juda murakkab dialektik birlikda bo'lib, o'zaro shartlangan, bir-birini ifodalaydigan bir tarzda voqe bo'ladi"[2]. Ayni shu fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, uslub individual xarakterga ega, ammo u tamomila yangi bir hodisa sifatida hech bir ijodkor ijodida voqelanmaydi. U san'analar zamirida shakllanib, ijodkorning yangiligi asnosida xususiylik kasb etadi. She'riyatning, dramaning, epik asarlarning o'z an'anaviy uslubi mavjud bo'lib, u har bir ijodkorning shaxsiy yaratish yo'sini asnosida yangilangan va ma'lum ijodkorga xos bo'lgan uslubga aylanadi. Isajon Sultonning "Abu Rayhon Beruniy" romani ayni yuqoridagi fikrlarga muvofiq keladi. Bu romanning tarixiy xarakterga ega ekanligi uning uslubi an'ana va novatorlik asnosida vujudga kelganini ko'rsatadi. Nega aynan tarixiy roman haqida so'z yuritilganda, uning an'analarga tayanishini alohida ta'kidlayapmiz? Buning o'ziga xos omillari mavjud, albatta.

Ma'lumki, Sharq adabiyoti an'analarga tayangan holda shakllangan adabiyot bo'lib, barcha novatorliklar ayni an'anadan o'sib chiqqanini alohida ta'kidlash joiz. Xususan, tarixiy roman yaratish ham ayni an'analar asnosida vujudga kelganini ta'kidlash joiz. Isajon Sulton ham tarixiy roman yaratish asnosida an'analar va novatorlik uy'g'unligida o'z individual uslubini namoyon etadi. Uning uslubidagi o'ziga xoslik bir qancha jihatlarda aks etgani holda, ularning eng yaqqol ko'zga tashlanib turganlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

Uslubning ijodiy ong orqali namoyon bo'lishi;

Uslubning badiiy asar tili orqali akslanishi;

Uslubning badiiy tasvir vositalari orqali ifodalanishi;

Uslubning obrazlarda namoyon bo'lishi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. H.Umurov "Adabiyotshunoslik nazariyasi" asarida "uslub – ijodkor dunyosidir, uning xayoloti, tasavvuri, aqli, bilimi, so'zshunosligi, talanti, geniysi, insoniyliigi – butun borlig'ini namoyon etuvchi badiiy hodisa, vositadir"[3] deb tushuntiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy, funksional, semantik-struktural, statistik, tipologik hamda psixobiografik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Uslubning ijodiy ong orqali namoyon bo'lishi. Ong yaratuvchilik xususiyatiga ega. Ayniqsa, ijodkor ong va tafakkuri borliqni tamomila o'ziga xos nigoh ila ko'radi, anglaydi. Ayni shu anglash o'zi xos mahsul hosil qiladi. Demakki, ijod – muallif tafakkuri mahsuli. Bu mahsul ijodiy tafakkur orqali vujudga keladi va o'z-o'zidan uslub tushunchasi bilan tutashadi. Demakki, butun bir tafakkur dunyosi uslubni yaratishga xizmat qiladi. Muallifning ijodiy tafakkuri, ongi o'ziga xosligi bilan uslubning ham o'ziga xosligini, originalligini ta'minlaydi. Zero, "Yozuvchining iste'dodi qanchalik ulkan bo'lsa, undagi o'ziga xoslik ham shunchalik ko'proq namoyon bo'ladi. Uslub keng qamrovli tushuncha bo'lib, yozuvchi ijodining barcha aspektalarida, jumladan, mavzu va g'oyalarida, sujet va

kompozitsiyada, obrazlarda, etik-estetik konsepsiyalarning talqinida, bayon tarzi va tasvir usulida, tilida namoyon bo'ladi"[4]. Isajon Sultonda ham aynan shunday. Uning asar yaratish asnosidagi o'ziga xosliklari butun sujet davomida namoyon bo'ladi. U asar mobaynida har bir voqelikka alohida yondoshadi va uslubining eng yorqin qirrasini namoyon etadi. Asarda Isajon Sulton goh tarixchi, goh yozuvchi qiyofasida namoyon bo'lar ekan, bu jarayonda eng avvalo, badiiy va ilmiy uslub sinteziga alohida e'tibor qaratadi. Ayni shu holatda uning badiiy tafakkuri romandagi voqelikni o'ziga xos tarzda namoyish etish barobarida, individual uslub xususiyatlarini ham akslantirib beradi. "Abu Rayhon Beruniy" romani sujeti hikoya ichida hikoya usuli asnosiga qurilgani bois, unda obrazlar nihoyatda tez-tez almashib turadi. Muallif bu hodisadan unumli foydalangani holda, deyarli har bir obraz tilidan qiziqarli ilmiy ma'lumotlarni bayon qiladi. Jumladan, Al -Xo'jandiy hikoyasida uning tilidan "Kanz al -ummol" asarida bayon qilingan quyidagi parchani uchratishimiz mumkin: qayerga borsa, ho'l-quruqni toptab yo'qotuvchi zolim kimsa filga, Tangridan dasturxon so'rashganida, dasturxon tushganiga qaramasdan kufr keltirgan nasroniylardan bir guruhi cho'chqaga, shanba kunini mensimasdan, taqiqlarga rioya qilmagan kishilardan bir guruhi maymunga, do'stlar orasini buzadigan chaqimchi odam zulukka va erini sehlrab, jodulab qo'ygan xotin o'rgimchakka aylangani haqida so'z boradi. Bu kabi qiziqarli ma'lumotlar o'quvchini o'ziga jalb etishi tabiiy bir holatdir. Muallif bu ma'lumotlarni sujet mobaynida izchillik bilan joylashtirib boradi. Bu o'rinda yozuvchi kitobxonga ham "kanz ul-ummol" degan asar borligini, uning mazmunini bir qadar tanishtirib o'tsa, asarning ayni shu qismida dunyo mo'jizalariga doir ilmiy ma'lumotni ham keltirib o'tadi: u yerlarda bir ko'k qurt bo'lib, uni sizak derlar. O'sha qurtidan birini topsalar, yo'ldan olib yiroqqa tashlaydilar, toki xotinlar u qurtini bilmay bosib o'ldirishmasin. Agar suv ko'targan xotinlardan biri qurtini bosib o'ldirsa, boshiga ko'targan ko'zadagi suv sasib, badbo'y bo'lib ketadi. Shundan keyin avval suvni to'kish, ko'zani yuvish kerak bo'ladi. asar ichida bu kabi ma'lumotlarga duch kelar ekanmiz, ayni shu o'rinda Q.Ergashevning arab, turkiy, forsiy tillarda ko'plab tarixiy asarlar yaratgan ijodkorlarning uslub haqida aytgan quyidagi fikrlari yodimizga keladi: "Bu asarlarning mualliflari tarixiy voqealar va faktlarni quruq bayon qilish yo'ldan bormaganlar, o'z asarlarini badiiy lavhalar, she'rlar bilan bezab, turli badiiy vositalarni qo'llagan holda bitganlarki, bugungi tarixchilarning asarlaridan farqli o'laroq, ulardan o'quvchi faqat bilim emas, badiiy zavq ham olgan. Mazkur asarlarda ilmiy uslubga xos xususiyatlar bilan badiiy nasrga xos xususiyatlar qorishib ketganligini ko'rishimiz mumkin"[5]. Ayni shu fikrlarni teskari holatda qabul qilsak, bu o'rinda Isajon Sultonga xos bo'lgan uslubning nozik qirralaridan birini anglashimiz mumkin. Agar Sharq tarixchiligida tarixnavislari o'zlarini tarixiy asarlarini adabiy manbalar bilan ziynatlagan holda, o'quvchiga badiiy va estetik zavq ulashganlari holda, ilmiy uslubga badiiy uslubni sintezlagan bo'lsalar, Isajon Sultonda ayni shu holatning ziddini ko'rishimiz mumkin. Yozuvchi asar mobaynida badiiy asarga tarixiy va ilmiy ma'lumotlarni singdirish orqali kitobxonning ilmiy bilimini oshiradi va shu bilan birga badiiy uslubga ilmiy uslubni sintezlashga erishadi, ya'ni ikki uslubni bir o'rinda o'ziga xos ijodiy tafakkur orqali badiiy go'zallikka aylantira oladi. Ayni shu o'rinda Isajon Sultonning Sharq tarixchilik an'analari bilan yaxshi tanish bo'lgani ham seziladi, yoki muallif "Abu Rayhon Beruniy" qiyofasini, obrazini yanada mukammallashtirish maqsadida, tarixshunoslik kitoblari va ilmiga katta qiziqish bildiradi. Asardagi ma'lumotlar nihoyatda qiziqarli bo'lishi barobarida kitobxonning ilmiy ma'lumotlar bilan ham tanishishiga imkoniyat yaratadi. Ayni

shu o'rinda uslub ijodiy ongning o'ziga xos yaratilari, bilim va ko'nikmasi orqali yuzaga kelishi yaqqol seziladi.

Uslubning badiiy asar tili orqali akslanishi. Badiiy asar tili uslubning eng muhim belgisidir. Chunonchi, "asar tili yozuvchi mahoratining bosh mezonini hisoblanadi"[6]. Ayni shu eng muhim mezon bo'lmish badiiy asar tili Isajon Sulton uslubida ma'lum o'ziga xoslikka ega. "Abu Rayhon Beruniy" tarixiy roman bo'lishiga qaramasdan asar tili pafoslarga nihoyatda boy. Yozuvchi badiiy asar tilini asosan, bir necha vositalar orqali boyitib, badiiy asar tilidagi pafosni kuchaytiradi: maqollar, hadislar, hikmatli so'zlar, she'riy misralar. Ijodkor bularni qahramonlarning ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra teng taqsimlaydi, obrazlar nutqida maqsadli qo'llaydi. Asar tilida har bir obrazning ijtimoiy holati, tafakkuri aks etadi.

Isajon Sultonning uslubini ziynatlagan maqollar, hadislar, hikmatli so'zlar, she'riy misralarni esa uslubiy ziynatlar deb qabul qilish mumkin. Demakki, romanda Isajon Sultonning adabiy tili badiiy jihatdan ziynatlangan va maxsus izlanishlar orqali boyitilgan. Garchand asar tilida yuqorida ta'kidlaganimiz kabi pafos yuqori bo'lsada, bu aksariyat hollarda muallif nutqiga tegishli. Asarning boshqa qahramonlari ijtimoiy kelib chiqishi, kasb-kori, yashash hududi, yoshiga ko'ra so'zlaydilar. Bu jarayon asar tilining ravon va barcha uchun tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Qahramonlar tili so'zlashuv nutqiga tegishli bo'lib, dialog va monologlar aniq va ixcham tuzilgan. Aslini olib qaraganda "Tarixiy asarda davr ruhi, qahramonlarning o'ziga xosligi badiiy tilda yarq etib ko'zga tashlanadi. Til – xalq xazinasi. Har bir san'atkor shu xazinadan o'z ehtiyoji va mahoratiga ko'ra foydalanadi. So'z o'z o'rnida ishlatilishiga, uning "yuragi" ura boshlaydi. Birgina so'z bir kartinani, voqeani qahramon ichki dunyosini nurlantirib yuborishi, yozuvchi munosabatini bildirishi mumkin"[7]. Ayni shu o'rinda ehtiyojiga ko'ra degan fikr e'tiborimizni tortadi. Til qanchalik boy va keng bo'lsin badiiy asarda tildan foydalanishning o'z qonun-qoidalari bor. So'zni o'z o'rnida qo'llay olmaslik, keraksiz jummalarni asarda ko'paytirib yuborish yozuvchi uslubiga katta darajada putur yetkazishi mumkin. Isajon Sulton shu holatni yaxshi anglaganini bois o'z uslubida ortiqchalikka yo'l qo'ymaydi. To'g'ri, u fikrlarini izchil, batafsil bayon etadi. Ammo ularning hech biri sun'iy tarzda orttirilmagan, tabiiy ilhom mahsulidir. Isajon Sulton arxaik so'zlarni qo'llashga alohida ahamiyat qaratadi. Zero, arxaik so'zlarda davr ruhi o'ziga xos tarzda aks etadi. Til Isajon Sulton uslubidagi eng ahamiyatli jihatlardan bittasi sanaladi. Yozuvchi tili uning uslubini tanitish uchun yordam beradi.

Xulosa va takliflar. "Uslub madaniyatning o'ziga xos xarakteri, davrning muhim belgisi, u yoki bu davrni aniq namoyon etuvchi hissiyotning metafizik shakli, "ma'naviyatning atmosferasi"dir. Uslub san'at, shaxs yoki biror predmet yoki material tanlamaydi. U tabiiy jarayonning bir ko'rinishi bo'lgan metafizik sitixiya sifatida o'zining yo'lidagi barcha jarayonni bo'ysunduradi, davrni ifoda etuvchi jarayonga aylanadi"[8]. Xarakterlar ichki dunyosining aniq namoyon bo'lishi sujetning ham badiiyati yanada yuqorilashiga xizmat qiladi. Epik asar sujeti ma'lum bir izchillik asnosida rivojlanadi. Ammo bu rivojlanish quruq hikoyachilik asnosida yuz bersa, asar saviyasi o'quvchini qoniqtirmaydi. Chunki voqelikni quruq rovilik asnosida yoritish badiiy adabiyotni hosil qila olmaganidek, sujetda ham biror jiddiy siljishni hosil qilmaydi. Isajon Sulton asarlarida sujetning barqarorligi, izchilligi va qiziqarliligi epik tasvirning mahorat bilan, izchillikda berilishi bilan bog'liqdir. Mukammal epik tasvir mukammal va badiiy mukammallikka ega epik kechinma hosilasini yaratadi. Epik tasvirda epik kechinma ham sekin- astalik bilan yuzaga keladi va boshqa badiiy turlarga nisbatan kuchliroq va uzoqroq davom etadigan ruhiy iztirob, shodlik, sevgi yoki nafratni hosil qiladi. "Abu

Rayhon Beruniy" romani tarixiy asar bo'lsada, unda bugungi davr ijodkorining, bugungi davr romanchiligining o'ziga xos elementlari yorqin tarzda namoyon bo'ladi. yozuvchi uslubi

o'zida bugungi davr adabiyotiga xos bo'lgan jihatlarni to'laligicha ko'rsatib beradi.

ADABIYOTLAR

1. Fitrat. Adabiyot qoidalari. T. B.26
2. Художественный метод и творческая индивидуальность писателя, М., 1964, стр. 234
3. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. T.Sharq. 2002. B.238
4. Ergashev Q. Alisher Navoiyning nasriy uslubi masalalari. F.f.b.f.dok.diss... T. 2022. B. 23
5. Shu manba
6. Solijonov Y. F.f.d. diss.. avtoreferati. T. 2002. B.4
7. Расулов А. Бадийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарк, 2007. – Б.192.
8. Шпенглер О. Закат Европы. Очерки морфологии мировой истории. Том 1.: Гештальт и действительность. Шпенглер О. пер. с нем., вступ.ст. и примеч. К.А.Свасьяна. – Москва: Мысль, 1993. – С. 663



Muqaddas OQMAMATOVA,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: cleverdiplomat90@mail.ru

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti dotsenti, filol.fan.nomzodi Jumayev F.O. taqrizi asosida

SEMANTIC FEATURES OF PHRASEOLOGICAL UNITS (IN THE EXAMPLE OF TOGAY MURAD'S TRANSLATION)

Annotation

In this article, the translation of the phraseological units in the translation of Ernest Seton – Thompson's stories by the talented writer Togay Murad in a semantically unique style, and the translator's skill in using words in the translation of the phraseological units, as well as some subtle aspects in the translation of the work of art language, that is, it is analyzed on the example of an artistic text in English, Russian and Uzbek languages.

In the analysis, the skill of the creator, his demandingness of words and the ability to feel the meaning of words are specially noted.

Key words: Color, lexical unit, phraseological unit, mentality, image, character, psychological state, context, shade, synonym, artistic skill, originality.

СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ (НА ПРИМЕРЕ ПЕРЕВОДА ТОГАЯ МУРАДА)

Аннотация

В данной статье рассматривается перевод фразеологизмов в переводе рассказов Эрнеста Сетона – Томпсона талантливым писателем Тогаем Мурадом в семантически уникальном стиле, а также мастерство переводчика в использовании слов при переводе фразеологизмов, а также некоторых тонких аспекты перевода художественного произведения на язык, то есть анализируются на примере художественного текста на английском, русском и узбекском языках.

В анализе особо отмечается мастерство творца, его требовательность к словам и умение чувствовать смысл слов.

Ключевые слова: Цвет, лексическая единица, оттенка, фразеологизм, менталитет, образ, характер, психологическое состояние, контекст, синоним, художественное мастерство, оригинальность.

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI (TOG‘AY MUROD TARJIMASI MISOLIDA)

Annotatsiya

Mazkur maqolada iste’dodli adib Tog‘ay Murodning Ernest Seton – Tompson hikoyalarining tarjimasida frazeologik birliklarning semantik jihatdan o‘ziga xos uslubda qilingan tarjimasi va frazeologik birliklar tarjimasida tarjimonning so‘z qo‘llash mahorati, shuningdek, badiiy asar tarjimasidagi ayrim nozik jihatlar uch til, ya’ni ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi badiiy matn misolida tahlil qilinadi.

Tahlilda ijodkor mahorati, uning so‘zga bo‘lgan talabchanligi va so‘z zalvorini his qilish ko‘nikmasi alohida qayd etiladi.

Kalit so‘zlar: Kolorit, leksik birlik, ottenka, frazeologik birlik, mentalitet, obraz, personaj, psixologik holat, kontekst, sinonim, badiiy mahorat, aslyat.

Milliy – madaniy leksik birliklarning ma’no ko‘lami mazkur xalqning madaniyati, hayoti, dunyoqarashining in’ikosi hisoblanadi. Ayniqsa, har millatning milliy—madaniy hayoti, tili, ma’no ottenkasining eng yorqin chizgilari, asosan, frazeologik birliklarda aks etadi. Ularda milliy kolorit noziklik bilan singdirilganligi yaqqol seziladi. V.A.Maslovning fikriga ko‘ra, "...tilning frazeologik fondi xalqning madaniyati va mentaliteti haqidagi eng qimmatli manbadir, unda xalqning afsonalari, urf-odatlar, marosimlari, bayramlari, odob-axloqi mujassamlashgan". [1. Маслова В.А. Лингвокультурология. 2-е издание. -М.: Academia, 2004. -204 с.] Frazeologik birliklar barcha tillarda bo‘lgani kabi o‘zbek va ingliz tillarida keng qo‘llanilib, ular ma’no jihatdan tarjimada mutloq yoki qisman bir-biriga muvofiq keladi.

Quyida jahon bolalar adabiyotining buyuk namoyondasi Ernest Seton – Tompson asarlari misolida mazkur til birliklarining qo‘llanishi va ularning tarjimadagi murakkabliklari borasida fikrlashamiz.

Bu tarjimalar O‘zbekiston Xalq yozuvchisi, iste’dodli adib Tog‘ay Murod qalamiga mansub bo‘lib, ushbu asar ilk bora ingliz tilidan rus tiliga N.Chikovskiy tomonidan tarjima qilingan. Keyinchalik rus tilidan o‘zbek tiliga o‘g‘irilgan. Biz

tahlil jarayonida asarning ingliz tili va rus tillaridagi nashri bilan muqoyasa qilishga harakat qilamiz.

Ernest Seton – Tompson asarlari ma’juzlarga asoslangan, teran insoniy tuyg‘ularni tarannum etsa-da, ularda obrazlarning ruhiy kechinmalari alohida tasvir yo‘siniga, yo‘liga, an‘analariga ega. Ular hayot ziddiyatlari bilan kurashuvchan, matonatli va isyonkorlardir. Shuning uchun asarlarda qo‘llangan frazeologik birliklar ham ana shunday jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

"Ta’bi tirriq bo‘lgan galachilar o‘z omadsizliklari aybdoridan o‘ch olishni ko‘ngillariga tugib qo‘yib, holdan toygan otlarida uylariga jo‘nadi." [2. Maktab adabiyoti xrestomatiyasi. 7-sinf, VIII jild; T:2016, B:64]

Yuqoridagi kontekstda "ta’bi tirriq bo‘lgan" frazeologik birligi "O‘zbek tili iboralarining o‘quv izohli lug‘ati"da quyidagicha izohlanadi: "kayfiyati yomonlashdi, xafa bo‘ldi". [3. B.Mengliyev va boshqalar. O‘zbek tili iboralarining o‘quv izohli lug‘ati. Yangi asr avlodi. T:2007; B:29]

"Ta’bi tirriq bo‘lgan" frazeologik birligi o‘zbek tilidagi "qovog‘idan qor yog‘moq", "ko‘ngli xira bo‘lmoq", "o‘z yog‘iga o‘zi qovurilmoq", "qovog‘ini uymoq", "tabiati tirriq bo‘lmoq", "ta’bi xira", "ta’bi namozshom", "tabiatini

xira qilmoq”, “ko’ngli sinmoq” kabi iboralar bilan sinonimlik hosil qiladi.

Shuningdek, “holdan toygan” frazeologik birligi esa “toliqqan, darmonsizlangan” degan ma’nolarni anglatadi.

Asarning ingliz tilidagi matnida esa mazkur frazeologik birliklar quyidagicha ifodalangan: “The cattlemen on their jaded ponies set out for home with the poor satisfaction of vowing vengeance for their failure on the superb cause of it.” [4. <https://en.m.wikisource.org>]

Ingliz tilidagi hikoyada “jaded” so’zi o’zbek tilida “charchagan” degan ma’noni anglatadi. Tarjimon bu so’zni o’zbek tiliga “holdan toygan” frazeologik birligi orqali hikoyada ma’nosini keng ochib bergan. Ingliz tilida “jaded” so’zi “burnt-out”, “worn-out”, “washed-out” frazeologik birliklari bilan sinonim hisoblanadi. Ammo yuqoridagi frazeologik birliklarning hammasi ham kontekstda “jaded” so’zi bilan almashinib ishlatilmaydi. Chunki bularning ma’no ottenkalari turli xil. Ingliz tilidagi “tired”, “exhausted”, “weary” so’zlari ham “charchagan” degan ma’noni anglatgani bilan ular o’rtasida ma’no biroz farq qiladi. “Tired” – charchagan, “exhausted” – nihoyatda charchagan (biror narsa bajarishga quvvati yo’q), “weary” - juda charchagan (qattiq mehnat yoki faoliyat tufayli) kabi. Shulardan “burnt-out”, “worn-out” frazeologik birliklari “exhausted” so’zi bilan, “washed-out” frazeologik birligi esa “tired” hamda “weary” so’zlari ma’nosiga teng hisoblanadi. Tarjimon “jaded” so’zini o’zbek tiliga “holdan toygan” frazeologik birligi orqali ifodalab kelgani, uning ingliz tilidagi “charchagan (hafsalasi pir bo’lgandan so’ng ishtiyoqi yo’qolgan)” degan ma’nosini aniq ifodalab bergan.

Shuni ham ta’kidlab o’tish kerakki, bu tarjima aynan ingliz tilidan emas, rus tili orqali o’zbek tiliga o’g’irilgan. Shu sababli o’zbek tilidagi kontekstni rus tilidagi tarjima bilan ham qiyoslaymiz: “Раздосадованные скотоводы отравились домой на своих заморенных лошадаках, поклявшись отомстить виновнику их неудачи.” [5. Сетон-Томпсон Эрнест. Мустанг-иноходец. Домино. Холдинг «Лабиринт», М:2006, С:48] Rus tilidagi “заморенных лошадаках”, ya’ni “o’lik holdagi otlar” o’zbek tiliga “holdan toygan otlar” birikmasi deya rus tilidan o’zbek tiliga o’g’irilgan. Bundan ko’rinib turibdiki, rus tilidagi ma’noni ochib berishda o’zbek tilidagi “holdan toygan otlar” birikmasi to’g’ri tanlangan.

Biz o’zbek tilida “holdan toygan” ma’nosini anglatuvchi quyidagi frazeologik birliklarni ham ko’rishimiz mumkin: ona suti og’ziga kelmoq, tinka-madori qurimoq. Lekin yuqoridagi frazeologik birikmalarning hamma ekvivalenti ham kontekstda almashinib qo’llana olmaydi. Demak, aslida tarjimani asliyatidan qilish – nozik va murakkab jarayon. Tarjimadan tarjimada esa asliyatdagi ma’no ancha zaiflashib qolishi kuzatiladi.

“Ta’bi tirriq bo’lgan” frazeologik birligi esa asliyatda, ya’ni ingliz tilida hech qanday birlik bilan ifodalanmagan, ammo bu birikmaning ko’plab ingliz tilidagi iboralar mavjudligini ko’rishimiz mumkin: “face like a wet weekend”, “down in the mouth”, “feel blue”, “to have the blues”, “reduce to tears”, “cry one’s eyes”, “down in the dumps”, “broken-heated”, “a heavy heart”, “take something hard”.

“Ta’bi tirriq bo’lgan galachilar” birikmasi rus tilidagi “раздосадованные скотоводы” birikmasi so’zma-so’z

Yuqoridagi tahlil qilingan barcha frazeologik birliklarni jadval misolida ham ko’rishimiz mumkin:

O'zbek tilida:	Ingliz tilida:	Rus tilida:
“Ta’bi tirriq bo’lgan” Sinonimlari: ko’ngli g’ash bo’lmoq dili siyoh avzoyi buzuq bo’lmoq bag’ri qon qovog’idan qor yog’moq ko’ngli xira bo’lmoq o’z yog’iga o’zi qovurilmoq qovog’ini uymoq tabiati tirriq bo’lmoq ta’bi xira	face like a wet weekend down in the mouth feel blue to have the blues reduce to tears cry one’s eyes down in the dumps broken-heated a heavy heart take something hard	раздосадованные недовольный сердитый хмурый нервный Суровый

tarjima qilinadigan bo’lsa, “norozi chorvadorlar” degan ma’noni anglatadi. Rus tilida “недовольный, сердитый, хмурый, нервный, суровый” kabi sinonimlari mavjud. O’zbek tilida esa umumiy ma’noda bitta “xafalik” ma’nosini “ta’bi xira bo’lmoq”, “ko’ngli g’ash bo’lmoq” kabi frazeologik sinonimlari biroz degan ma’noda qo’llanilsa, undan yuqoriroq daraja uchun “dili siyoh”, “avzoyi buzuq bo’lmoq” iboralar mavjud. Eng yuqori bosqich ma’nosida esa “bag’ri qon” iborasi ishlatiladi. [6. Qodirova M. O’zbek tilshunosligida frazeologizmlarning o’rganilish jarayoni. Science and innovation. UIF-2022. 8.2 ISSN:2181-3337. B:1618] Yuqoridagi rus tilidagi sinonimlar tarjimada “раздосадованные” so’zlari bilan almashirib foydalanganda ma’no kontekstda o’zgarmaydi, lekin “ta’bi tirriq bo’lmoq” birikmasining sinonimlari orasida ma’no darajalari biroz farqli ekanligini ko’rishimiz mumkin.

“Barcha tashvishlar sababchisi bo’lmish ayg’ir esa hamon yetib bo’lmas dovonligicha qolaverdi.” [2. Maktab adabiyoti xrestomatiyasi. 7-sinf, VIII jild; T:2016, B:71]

Yuqoridagi frazeologik birlik ham “cheksiz, ushalmagan orzu, amalga oshirish qiyin” degan ma’nolarni anglatadi.

Mazkur frazeologik birlikning ingliz tilidagi ekvivalentini rus va o’zbek tillari bilan solishtirib ko’ramiz: “But the one who was the prize of all the hunt seemed just as far as ever out of reach.” [7. <https://en.m.wikisource.org>.]

Asliyatda “as far as ever out of reach” birikmasi “inaccessible, out of the way, remote, unattainable, unobtainable, unreachable” so’z va frazemalariga sinonim hisoblanib, o’zbek tilidagi tarjimada qo’llanilgan “yetib bo’lmas dovon” iborasi ma’nosiga teng hisoblanadi. Holbuki, o’zbek tilidagi tarjima rus tilidan qilinganligini hisobga olib, rus tilidagi tarjimani ham qiyoslab ko’ramiz: “А жеребец, который был целью всех трудов, оставался недосыгаемым попрежнему.” [8. <https://www.labyrinth.ru>]

Bundan ko’rishimiz mumkinki, “недосыгаемым” so’zi esa “недостижимый, несбыточный, неосуществимый” so’zlariga ma’no jihatdan yaqin hisoblanib, asliyatdagi “as far as ever out of reach” ma’nosini to’liq ochib bergan. Shuningdek, rus va o’zbek tillaridagi tarjimada ingliz tilidagi iborani aynan ochib bergan so’z va frazemalar qo’llangan.

Quyida yana bir misol tahlilini ko’rib o’tamiz: “Dong’i ketgan yo’rg’ani juda-juda ko’rgim keldi, ertasiga Jayron bulog’iga borib, hafsalam pir bo’ldi, sababi, u yerda yo’rg’aning ham, galaning ham daragi yo’q ekan.” [2. Maktab adabiyoti xrestomatiyasi. 7-sinf, VIII jild; T:2016, B:65]

“Hafsalasi pir bo’lmoq”, “daragi yo’q” iboralarini asliyatdagi kontekstda ko’rib o’tamiz: “I was full of curiosity to see the famous three-year-old, and was not a little disappointed on the second day when we came to the prairie on Antelope Springs and saw no sign of the Pacer or his band”. [7. <https://en.m.wikisource.org>.]

“To be a little disappointed” hamda “no sign of” iboralarining rus tilidagi tarjimada berilishini ham ko’rishimiz mumkin: “Мне страшно хотелось увидеть этого знаменитого мустанга, и я был несколько разочарован, когда оказалось, что у источника Антилопы, куда мы пришли на другой день, нет ни мустанга, ни его табуна. [9. <https://dzen.ru>]

ta'bi namozshom tabiatini xira qilmoq ko'ngli sinmoq		
"holdan toygan" Sinonimlari: ona suti og'ziga kelmoq tinka-madori qurimoq	Jaded burnt-out worn-out washed-out tired exhausted weary	Заморенных
"yetib bo'lmas dovon"	as far as ever out of reach inaccessible out of the way remote unattainable unobtainable unreachable	Недосягаемым недостижимый несбыточный неосуществимый
"hafsalasi pir bo'lmoq"	To be a little disappointed	несколько разочарован
"daragi yo'q"	no sign of	нет ни

Tog'ay Murod – mohir tarjimon. Yozuvchi iboralarni tanlashda bevosita personajlarning ruhiy holatidan kelib chiqib yondoshganligi tarjimonning so'z qo'llash mahoratidan darak beradi.

Tarjimon frazeologik birliklarni qo'llashda, tarjima qilishda badiiy tasvir jihatlarini ham e'tibordan chetda qoldirmaydi. Tarjima garchi ikkinchi tildan, ya'ni rus tilidan

amalga oshirilgan bo'lsa-da, asarning tub g'oyasi ijodkor mahorati orqaligina mukammal saqlanib qolingan.

Tahlillar shuni ko'rsatib turibdiki, tarjimani san'at darajasiga ko'tarish uchun, avvalo, adabiyotni sevish, til bilish ko'nikmalariga tayanibgina qolmasdan, tug'ma iste'dod bo'lishi ham muhim ekanligini chuqur anglab yetmog'imiz zarur.

ADABIYOTLAR

1. Маслова В.А. Лингвокультурология. 2-е издание. -М.: Academia, 2004.
2. Maktab adabiyoti xrestomatiyasi. 7-sinf, VIII jild; T:2016.
3. B.Mengliyev va boshqalar. O'zbek tili iboralarining o'quv izohli lug'ati. Yangi asr avlodi. T:2007.
4. <https://en.m.wikisource.org>
5. Сетон-Томпсон Эрнест. Мустанг-иноходец. Домино. Холдинг «Лабиринт», М:2006.
6. Qodirova M. O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarning o'rganilish jarayoni. Science and innovation. UIF-2022. 8.2 ISSN:2181-3337.
7. <https://en.m.wikisource.org>.
8. <https://www.labirint.ru>
9. <https://dzen.ru>



UDK:811.512

Malika RAXATALIYEVA,
O'zDJTU magistraturanti
E-mail: malikarohatalieva@gmail.com

O'zDJTU dotsenti M.Abduvahobova taqrizi asosida

THE CONCEPT OF "PATIENCE" (SABR) IN ENGLISH AND UZBEK LINGUISTIC AND CULTURAL CONTEXTS

Annotation

Patience is an important human quality that is needed in life. The semantic structure of the concept «Sabr» (Patience) is represented by such concepts as perseverance, endurance, suffering, pain, unpleasant, undesirable condition and patience to others' opinion. Patience is a social characteristic of man, an indicator of courage, inner strength, a condition of tact in communication. The article gives a brief comparative analysis to identify the national-specific features of the concept «Sabr» (Patience) in Uzbek and English languages, as well as to determine a set of substantial characteristics inherent in the world view of Uzbek and English ethnic groups.

Key words: Patience, Sabr, concept, world picture, linguo-culturology, comparative analyses

PATIENCE (SABR) KONSEPSIYASINING INGLIZ VA O'ZBEK LINGVISTIK VA MADANIY KONTEKSTLARDAGI IFODASI

Annotatsiya

Sabr-inson hayotining eng muhim va kerakli jihatlaridan biri sanaladi. Sabr konsepti tuzilishi quyidagi bardosh, toqat, chidamlilik, qanoat, boshdan kechgan og'riqli vaziyatlarga chidam, o'zgaral fikriga tolerantlik kabi tushunchalar bilan bir qatorda keladi. Sabr bu insonning ijtimoiy -psixologik hususiyatlari, mardligi, matonati va muloqot jarayonidagi pozitsilari ko'rinishida namoyon bo'ladi. Quyida yozilgan maqola o'z ichiga "Sabr" konseptiyasining O'zbek va ingliz tillaridagi milliy o'ziga hosliklarni va o'xshashliklarni aniqlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Patience, Sabr, concept, world picture, linguo-culturology, comparative analyses

КОНЦЕПТ "ТЕРПЕНИЕ"(САБР) В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЛИНГВИСТИЧЕСКОМ И КУЛЬТУРНОМ КОНТЕКСТАХ

Аннотация

Терпение является одним из важных и нужных человеческих качеств. Семантический анализ концепта «Сабр» (Терпения) представляет собой такие значения как: выносливость, страдания, боль, настойчивость, стойкость, терпения к нежелательным обстоятельствам, снисходительность к мнению окружающих. Терпение - социальная характеристика человека, показатель мужества, внутренней силы, состояние такта в общении. В статье дается краткий сравнительный анализ для определения национально-специфических особенностей понятия "сабр" (Терпение) на узбекском и английском языках, а также для определения комплекса существенных особенностей, присущих мировоззрению узбекской и английской этнических групп.

Ключевые слова: Сабр, терпения, концепт, картина мира, сравнительный анализ, лингвокультурология.

Patience is a moral and emotional concept that is the part of the national concept, which has a universal character. It is realized in many linguo-cultures and considered as common to most people. Patience is an important human quality that is essential to human life. The semantic structure of the concept «Sabr» (Patience) is represented by such concepts as: perseverance, endurance, suffering, pain, unpleasant, undesirable condition and patience to others' opinion. Patience is a socio-psychological trait of man, an indicator of courage, inner strength and a condition of tact in communication.

The actuality of the study is due to the lack of national-specific features of the concept «Sabr» (Patience) in the Uzbek language picture of the world.

The aim of the article is to identify the national-specific features of the concept «Sabr» (Patience) in Uzbek and English on the basis of comparative analysis, as well as to determine a set of substantial characteristics inherent in the worldview of Uzbek and English ethnic groups.

In European philosophical literature concept "Patience" consists of four dominant factors which are the basis for the examination of the concept of patience in contexts:

1) Patience is an attribute of the Material and the ideal world (Aristotle)[1];

2) Patience Is a virtue that is correlated with suffering And pleasure (Aristotle, Tertullian, etc.[2]);

3) Patience– "The subjective need for suffering" (Kant[3]);

4) Patience – the basis of human life and The foundation of society's existence (Schopenhauer[4]).

In the English dictionaries "Longman Active Learning Dictionary", Webster's Encyclopedic Unabridged Dictionary, English Language Collins English Dictionary, "Longman Dictionary of Contemporary English", "Cambridge International Dictionary of English", "Oxford English Dictionary", we discovered that the semantic structure of the English concept "patience" comprises various meanings, collectively forming the conceptual layer of the explored idea.

As it is evident, patience in English language might be understood as:

1) The ability to continue to wait or doing something for a long time without becoming angry or anxious[5];

2) The ability to accept trouble and other peoples annoying behavior without complaining or becoming angry.

3) The calm endurance of pain, trouble, inconvenience, etc. Formerly also foil, by the pain etc.

4) Forbearance under provocation, esp. tolerance of the faults or limitations of other people,

5) (The capacity for) calm, self-possessed waiting,

6) Constancy in exertion or effort; perseverance

It's important to highlight that the term "patience" in English has multiple meanings, resulting in its diverse usage in various expressions:

he lost his patience;

to try smb's patience;

to lose patience;

to exasperate somebody;

have no patience with him;

to show patience;

to be patient;

to have patience;

to arm oneself with patience;

After analyzing the synonymic relationships within the concept of "patience" and words related to its theme, we identify the following features:

1) self-control;

2) obedience;

3) endurance;

4) expectation;

5) perseverance;

6) great patience;

7) religious virtue;

8) misery;

For identifying the concept Patience in literary works we have chosen legends, short stories and novels. All chosen materials were written by native speakers of English language. The choice of native speakers were deliberately because only with a help of their worldview we could identify their world picture towards the concept "Patience".

The concept of patience is often explored in English short stories, where characters face challenges or obstacles that require them to endure, wait, or exhibit perseverance. For example, in the short story titled "The Waiting Game" the protagonist of this story Eleonora was known for her unwavering patience, she had been tested throughout her long life. Her patience became a source of inspiration, from whom the community learned the valuable lesson that sometimes, in the face of adversity, patience is the key to enduring and ultimately overcoming challenges.

The vivid example of the English novel, where the concept patience is illustrated is Vera Brittain's "Testament of Youth[7]". In this novel the theme of patience is intertwined with the broader themes of loss, endurance, and the impact of war. The memoir recounts Brittain's experiences during World War I, including the challenges and tragedies she faced. While the narrative may not explicitly address patience, the entire memoir is a testament to Brittain's endurance and perseverance in the face of immense adversity. Brittain's patience is reflected in her ability to cope with the loss of loved ones, including her fiancé Roland Leighton and her brother Edward. The memoir captures the emotional toll of war, and through Brittain's journey, readers witness her enduring the pain of grief and patiently navigating a changed world.

"Testament of Youth" is a poignant account of a woman's resilience during a tumultuous period in history, and within this narrative, the concept of patience emerges as a subtle undercurrent, manifesting in Brittain's ability to withstand and transcend the challenges life presents.

In order to carry out lexical and semantic analysis and identify the national specificity of the concept «Sabr» (Patience) the linguistic units reflecting the notion of «Sabr»

(patience) are analyzed. The etymology of the word «Sabr[8]» in the Uzbek language goes back to the Arabic language. In Arabic, the term «Sabr» is expressed by the lexeme, which was formed by the verb sabr(un). Later it was borrowed into Uzbek language by changing the the letter "sod" into "s": sabr-сабр;

In Shavkat Rahmatullayevs' "O'zbek tili etimologik lug'ati" dictionary is given polysemantic Arabic verb "Sabara" which had been taken into Uzbek language by defining the word "toqatli bo'lmoq" and in English "being patient". Moreover, with a help of this word it has been created number of adjectives as "sabrlı", "sabsız"; compound nouns as "Sabr-toqat", "sabr-qanoat", "sabr- bardosh"; noun "sabsızlik"; women proper noun "Sabri" which means –"patient women".

There conducted lexicographic analysis of synonym words with the meaning of "patience" in the Uzbek language on the material of the dictionary "Hozirgi O'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati"[9] by A. Hojiyev. There are several synonyms such as: "Chidam", "toqat", "qanoat", "ko'nmoq" "bardosh" has been mentioned in it:

Chidam, toqat-endurance;

Bunga qolganda, sizni bilmasam-da, ammo mening bunday judolikka sira toqa-tim yo'q[10].

A. Qodiriy, O'tgan kunlar.

Qanoat-contentment;

Ovqat ustida boshini egib, oldiga surib qo'yishganiga qanoat qilardi[11].

R. Fayziy, „Hazrati inson“

Ko'nmoq-endure;

Quloq sol-gin cho'ponning nolishiga, Yigit ko'nar, savdo tushsa boshiga. "Alpomish[12]" .

Bardosh- perseverance;

Olti bolani tuproqqa qo'yish.. Bu musibatlariga qanday bardosh beradi ekan-a? K. Yashin, Hamza[13].

The provided examples illustrate how the term "Sabr" is employed with synonymous expressions in literary writings. It is clear from the context that they differ in meanings but at the same time could be replaced by each other in some sentences.

Having analysed Uzbek lexicon we have found set expressions in language, such as:

Sabr kosamni to'ldirma;

Sabrimni sinama;

Sabrlı bo'l;

Sabri chidamadi;

Sabri tamom bo'ldi;

Sabriga balli;

Sabri tog'dek;

From counted expressions is clear that, the word "Sabr" in expressions have three meanings. Firstly, it is informing partner about the temper of the speaker might change, because it has already achieved peak point.

Secondly, it might motivate person to be more tolerant, stay stable. Finally, appreciating someone's high level of patience in a way of comparing their "Sabr" into something powerful.

Having studied all the linguistic and literary works, we conclude that the concept "patience" is widely represented both in English and Uzbek linguistic cultures mainly in positive influence. At the same time, two comparable linguacultures have similarities in their conceptual world pictures. In both cultures, people understand the importance of such quality as patience in becoming an individual. The analyses is also has shown the resemblances between synonymic row. Patience as vitally important virtue, receives high positive evaluation and acquires the corresponding value status in both cultures.

LITERATURE

1. Aristotle (2002) "Metaphysics. Translation. Commentary. Interpretation, in Russian"
2. Tertullian's letter on Patience. Retrieved December 3, 2019 from: <http://www.pseudepigrapha.com/LostBooks/tertullian>
3. Kant. "Habermas", 2001, pp. 58-60
4. Schopenhauer Salaris, 2009, p. 6. My translation
5. CambridgeDictionary (<https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/patience>).
6. Longman Dictionary of Contemporary English (<https://www.ldoceonline.com/dictionary/patience>).
7. Verra Brittain "Tastement of youth" publisher Victor Gollancz (28 August 1933)
8. "Ўзбек тилининг этимологик лугати"-Шавкат Рахматуллаев "Университет" нашриёти
9. "Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati" A.Hojiyev «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati-2001
10. "O'tgan kunlar" A. Qodiriy Nashriyot: «SHARQ» NMAK 2018-yil
11. Rauf fayziy "Hazrati inson" romani "G'afur G'ulom" nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent-1978
12. "Alpomish" — o'zbek xalq qahramonlik eposi", "Toshkent" nashriyoti-1999
13. "Hamza"- Komil Yashin romani "Toshkent-1987"



Khurshid SARIMSOKOV,

National University of Uzbekistan, Faculty of Foreign Philology Department of foreign language and literature, associate professor, PhD

E-mail: hurshidsarimsokov@mail.com

On the basis of review by O.S.Ahmedov

omilning ta'siri kuchining oshib borayotganligini ko'rsatadi. Keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, asarlarda qo'llanilgan arab, o'zbek tillaridagi vaqt ko'rsatkichlarini umumiy jihatlarini emas ularning qiyosiy va xususiy jihatdan ham o'rganish tilshunoslik fanining dolzarb muammolaridan

biri hisoblanadi. Har bir omil ilmiy jihatdan mukammal va sinchiklab o'rganilsa, boshqa tillardagi tarjimalarga qiyoslanilsa undagi so'zlar alohida olingan terminlar ekanligiga amin bo'lamiz.

ADABIYOTLAR

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Oltin silsila (Sahihul Buxoriy)" 1- juz "Hilol-nashr" nashriyoti, Toshkent,2013, 670 bet
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Oltin silsila (Sahihul Buxoriy)" 8- juz "Hilol-nashr" nashriyoti, Toshkent,2013, 687 bet
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf "Tafsiri hilol" 4- juz "Hilol-nashr" nashriyoti, Toshkent,2013, 638 bet
4. أبو عبد الله محمد بن اسماعيل البخاري "صحيح البخاري"، دار كتاب العربي، بيروت لبنان، 2016م، 1728ص.
5. علي ابن أحمد ابن حجر العسقلاني "فتح الباري في شرح صحيح البخاري" مصر 2010
6. Курбонов, Бобур Мовароуннахр ва Хуросон тазкирачилик мактаби шаклланиши // orienss. 2022. №5. url: <https://cyberleninka.ru/article/n/movarounna-r-va-huroson-tazkirachilik-maktabi-shakllanishi>
7. Шавкатжон Аламов (2023). The need for a comparative study of tourist // Международный журнал искусство слова., terms. том 6 № 2 (2023).



UDK:894.375-32:157(045)

Dilafuz XOLIQOVA,

Xalqaro Innovatsion universiteti Filologiya va tillarni o‘qitish kafedrasida katta o‘qituvchisi

Qarshi davlat universiteti dotsenti f.f.f.d (PhD) N. Suyarova taqrizi asosida

“UNUTILGAN AYOL” HIKOYASIDA AYOL RUHIYATI TALQINI

Annotatsiya

Mazkur maqolada iste’dodli yozuvchi Salomat Vafoning “Unutilgan ayol” hikoyasida ayol ruhiyatining badiiy-psixologik talqini haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Hikoya, qahramon, ruhiyat, talqin, tahlil, abort, psixologik, jarayon, xotira.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ЖЕНСКОЙ ПСИХИКИ В ПОВЕСТИ «ЗАБЫТАЯ ЖЕНЩИНА»

Аннотация

В этой статье рассматривается художественно-психологическая интерпретация женской психики в рассказе “Забывтая женщина” талантливой писательницы Саломат Вафо.

Ключевые слова: История, герой, психика, интерпретация, анализ, аборт, психология, процесс, память.

INTERPRETATION OF THE FEMALE MENTALITY IN THE NOVEL “THE FORGOTTEN WOMAN”

Annotation

This article examines the artistic and psychological interpretation of the female psyche in the story “The Forgotten Woman” by the talented writer Salomat Vafo.

Key words: History, hero, psyche, interpretation, analysis, abortion, psychology, process, memory

Kirish. O‘zbek badiiy tafakkuri rivojida ayol ijodkorlarning alohida o‘rni bor. Tarixdan ma’lumki, Gulbadanbegim, Nodira, Uvaysiy, Anbar Otin kabi hassos qalb sohibalari mumtoz adabiyot tarixida naqadar yuksak asarlar yaratgan bo‘lsa, hozirgi davr o‘zbek adabiyotida Zebo Mirzo, Farida Afro‘z, Halima Ahmedova, Xosiyat Rustamova, Go‘zalbegim, Zulfiya Qurolboy qizi, Salomat Vafo kabi ijodkor ayollar ham shunday noyob asarlar yaratib kelmoqdalar.

Adabiyoshunosligimizda ayol ijodkorlar xususida, ularning badiiy asarlari tahlili borasida salmoqli izlanishlar olib borilmoqda. Sababi, ayol ijodkorlarning o‘ziga xos olami, tafakkuri, dunyoqarashi mavjud. Ular olamni o‘zgacha rakursda idrok qiladilar, olam hodisalari haqida o‘zlariga xos fikr yuritadilar. Shu ma’noda, yangi davr adabiyotida o‘z o‘quvchilarini, muxlislarini topa olgan Salomat Vafoning asarlarini kuzatish joizdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Salomat Vafo nasrning bir qator janrlarida qalam tebratadi. Yozuvchining birinchi kitobi “Ayol” deb nomlangan bo‘lib, u 1989-yilda nashr etilgan. Keyingisi esa “O‘zini izlayotgan ayol” nomli qissa va hikoyalar to‘plami chop etildi. Ko‘ramizki, Salomat Vafo o‘zi ayol kishi bo‘lganligi sababli asarlarida aksar hollarda ayol taqdiri, umri, qismati, ruhiyatini aks ettirishga moyillik ustunlik qiladi. Adibaning “Unutilgan ayol” nomli mo‘jazzgina hikoyasi ayolni bola oldirish, ya’ni abort qildirish voqeasi tafsilotiga, xususan, ushbu jarayonda ayolning ruhiy holati, his-tuyg‘ulari, ichki kechinmalari tasviriga bag‘ishlanganligi bilan e’tiborga loyiq. “Milliy adabiyotimiz-da abort potologiyasi haqida yozilsa, ehtimol, yozilganidir, ammo uning psixologiyasi haqiligacha estetik obyektga aylangani yo‘q edi”[1]. Aynan, Salomat Vafoning “Unutilgan ayol” hikoyasida abort psixologiyasi kuchli tasvirlanganligini ko‘ramiz.

Hikoya qahramoni unutilgan ayol. Dunyo shoirlari, yozuvchilari muhtaram ayol zotiga yuksak ta’rifu-tavsiflar bitishgan. Hatto mumtoz she’riyatimizning an’anaviy janri hisoblangan “G‘azal” atamasining lug‘aviy ma’nosi ham

arabcha “oshiqona so‘z, ishq izhor etish, ayollarni madh etish” degan ma’nomlarni anglatadi. Dunyo olimlari, shoirlari, adiblari bitgan barcha-barcha asarlarda Ona degan zotning ulug‘ligi, azizligi, mehribonligi, yagonaligi, bebaholigi xususida fikrlar bayon etilgan. Oilaning fayzi ayol, farzand tarbiyasida ayolning roli beqiyosligi haqida betinim bong uriladi. Olamda jamiki ayol zoti borki, u farzand ko‘rishni, uni dunyoga keltirishni, boqishni, tarbiyalashni, mehr berishni, uning timsolida orzu-umidlari ro‘yobini ko‘rishni istaydi. Shuning uchun u bolani dunyoga keltirishdek mashaqqatli yumushnu zimmasiga qo‘rqmay oladi, o‘limga tikka bora oladi. Tahlilga tortilgan hikoyada esa, teskari holat. Asarda uning ismi, sharifi berilmagan. Hikoya birinchi shaxs tilidan bayon qilingan. Sarlavhadan keyin “Alla bolam, alla-yo, Osmon bolam, alla-yo. Orzu bolam, alla-yo, Armon bolam, alla-yo” degan epigraf keltirilgan. Bolasini dunyoga keltirishni istamagan va uni oldirib tashlash niyatida kasalxonaga borgan, abort qildirgan va shu jarayonda og‘ir ruhiy iztiroblarni qalbidan kechirgan ayol ruhiyati o‘quvchini cheksiz iztiroblar girdobiga tashlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Hikoya shunday misralar bilan boshlanadi: “Olam beo‘xshov jonivorning yo‘g‘li badaniday to‘lqinlanar, yaltirar, qulog‘imga ilgari sira eshitmagan shovqin-suronlar kirar, ne voqea sodir bo‘lganidan sira his etolmasdim”[2] Farzand-Ollahning ne‘mati, deya qabul qilishga odatlangan millatimiz ruhiyati shundayki, oilada nechta bola tug‘ilsa ham, quvonch bilan uni kutib oladi. Bolajon xalqimizda “O‘nta bo‘lsa, o‘rni boshqa”, “O‘zini bergan rizqini ham beradi”, “Bolali uy - bozor, bolasiz uy - mozor” qabilidagi maqollar nihoyatda ko‘p. Va bu kabi maqollarning paydo bo‘lganligi va saqlanib asrlardan-asrlarga o‘tib kelayotganligi bejiz emas. Bolajonlik millatimizga xos belgilardan biri hisoblanadi.

Hikoyaning dastlabki abzatsidayoq bola oldirishga borayotgan ayolga “Olam beo‘xshov jonivorning yog‘li badaniday” tuyuladi, qulog‘iga “ilgari sira eshitmagan shovqin-suronlar” kiradi. Salomat Vafo ayol ruhiyatini nozik ilg‘aydi hamda qahramon tasvirida psixologik va tragik holatlarni sinkretik usulda talqin qiladi. “Ich-ichimdan

qo'rqayotganimni, bu noma'lum holatda qanday yo'l tutishimni, nega bunday ahvolga tushib qolganimni bilolmayotgandim"[2]. Qahramon ruhiyatidagi beqarorlik, ikkilanish, mavhumlik, qilayotgan ishining mohiyatini his etyaptimi yoki yo'qmi, bilolmaslik - bu ruhiy muvozanatning buzilishidan, bezovtalikdan darak beradi. Adiba abort holatidagi ayol ruhiyatini batafsil, erinmasdan, mahorat bilan tasvirlaydi: "Menga esa havo yetishmas, to'lg'onar, og'zimni sassiz ochib-yumib, kimnidir yordamga chaqirar, tezroq bu iskanjadan xalos bo'lib, erkin, ozod, orqayin nafas olgim kelardi. Havo yetishmas, bo'g'ilib, holsizlanardim. Og'zi bilan suvga yiqilib tushgan, qo'li orqasiga bog'langan odam nafas olish uchun jonhalak tipirchilaydi. Undan beshbattar ahvolda edim, bu yerga qachon kelgandim, qaysi dunyo bu, deya o'ylardim"[2].

Adabiyotshunos Mirzaaxmad Olimov qayd qilganidek, "Tragik situatsiya o'zida tragik kolliziyani mujassamlashtirgan, qahramonni xatarli azob - uqubatlarga, iztiroblarga va qaysidir ma'nodagi halokatga duchor etadigan vaziyatdir" [3] Bu xarakterli fikr Salomat Vafoning unutilgan ayoli shaxsiyatiga ham tegishlidir. Binobarin, inson psixologik dunyosi tragizm bilan bevosita bog'liq. Dahshatli jismoniy og'riq azobi bilan ruhiy qiynoq qo'shilib qahramonni ruhiy muvozanatdan chiqarib yuboradi. U hatto qaysi dunyoda ekanligini ham anglay olmay qoladi, ya'ni tirikmi, o'likmi? O'zini xuddi do'zaxga tushgandek his etadi. Hikoyaning xuddi shu joyida ayolda jismoniy og'riqdan (ukol ta'sirida sezilmagan) ham ko'ra vijdon azobi kuchli namoyon bo'lganligini ko'rish mumkin. Aybdorlik hissi, dunyoga kelishga haqqi bor bir go'dakning qotiliga aylanishdek jinoyatni sodir etgan qahramon "...gursillab do'zaxga tushdim. Endi do'zax olovlarida nech o'n minglab yonaman, gunohga botgan tanam necha yuz ming yillab burqsiydi" deb vijdon azobiga qoladi. Shu topda uning boshi uzra besh yil oldin vafot etgan onasining ko'lankasi keladi. Abort jarayonida ayolning qalbidan kechgan favqulodda qaramaqarshi tuyg'ular, ya'ni qora olomonning uning izidan quvishi, " hayda uni, mahallani harom... xarob etdi" degan so'zlari, onasining unga istehzoomuz "Assalom" deyishi; "Baribir o'z aytganingni qilibsana-da?!" degan ta'na-dashnomi, g'oyibona ayblovlar, kutilmagan la'nat eshitishlar, va nihoyat, "Man sanga qurbon o'lam" qo'shig'ining eshitishtirishi jarayoni psixologik jihatdan silsilaviy ravishdagi adabiy rakursda o'z ifodasini topgan. Insonning dard-alamlari me'yordan ko'payib ketganda, uning hissiyotlarini so'z bag'riga joylash mushkullashadi. Ana shunda kuy yordamga keladi. Yozuvchi ayol shaxsiyatining ruhiy zarbalar tizimini psixologik talqinlar hisobiga borgan sari kuchaytirib boradi.

Hikoyada "pichoq" detali katta rol bajargan. Pichoqning vazifasi ma'lum. Hikoya voqealigi tizimida psixologik xotira uslubi yetakchilik qiladi. Qahramonning xotirasiga otasining "pichoqda yovuz kuch bor" degan gapi keladi. Xayolida kechayotgan turli xil xotiralar, tasavvurlar mobaynida uning vujudi uzra ulkan pichoq tinimsiz jadallaganicha o'z vazifasini ado etardi. Go'dakning barcha tana a'zolarini birin-ketin kesib tashlayotgan pichoqni ortga qaytarishning iloji yo'q. Oradan million yil o'tgandek tuyuldi. Jarayon tugadi va qahramon sekin-asta o'ziga kela boshlaydi. Vaqt - oliy hakam. Ayol tanasini tark etgan ruhi yana vujudiga qayta boshlaydi.

Tahlil va natijalar. Adabiyotshunos olim U.Jo'raqulovning ta'kidlashicha, "insoniyatga ruh haqida juda kam bilim berilgan. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida ko'p bora ta'kidlanganidek, insonshunoslik, ya'ni, ruhshunoslik vazifasiga loyiq birgina talqin vositasi bor, u ham bo'lsa faqat adabiyotdir. Shu bois, hatto butun dunyoga mashhur Z.Freyd, K.Yung, E.Fromm, J.Lakan kabi psixoanalitiklar ham, yaratilgan tadqiqot obyektlari tirik odam bo'lishiga qaramasdan, o'z xulosalarida badiiy adabiyotga tayanadilar"[4]. Darhaqiqat, ruh deganda aniq bir tasavvurga

ega emasmiz. Ammo "Unutilgan ayol"ni ruhi tark etganligini matn orqali aniq his eta olamiz. Bu ijodkorning yuksak mahoratidan dalolat.

Adabiyotshunos I.G'aniyevning iborasi bilan aytganda "Vijdon azobi - surgun jazosidan ham og'irroqdir"[5]. O'ziga kelgach, pushaymonlik, qilgan ishidan afsuslanish, hayotining beg'ubor davrlariga qaytish istagi, vijdon azobidan qutulishni xohlaydi: "Men tezroq qutulishni, bu yerdagi O'zimni (1997-yil 28-maydagi O'zimni) unutilishni istardim" [2] Iste'dodli adib Nazar Eshonqulning fikricha: "O'qiganimiz ham, o'qitganimiz ham o'zimiz. Biz bilan xayrlashuvchi ham o'zimiz, kutib turgan ham o'zimiz. O'zimizdan qochib o'zimizga boramiz. Hayotimiz, fikrimiz ana shu o'zliklar orasida shakllanadi, o'zliklar orasida kechadi va sarf bo'ladi. Biz botindan va zohirdan o'zimizni izlab yuramiz. Ular orasidagi masofa juda yaqin va juda uzoq, chunki u mendan "men" gacha bo'lgan bepoyonlikni qamrab oladi..." [6] Yoshligiga, beg'ubor damlariga qaytishni istagan ayol xuddi o'zligini izlayotgan odamga o'xshaydi. Ammo u yana o'z "men"iga qaytdi, zero, o'zga yo'l yo'q edi: Yana men o'zimni unutilib qo'ygandim. Endi o'ziming kimligimni sira eslolmasdim" [2].

Hikoyaning oxirgi abzatsidagi mazkur jumla ayolning qanday holatda va kim ekanligini ochib bergan. Unutilgan ayol, aslida o'zligini yo'qotgan bir kimsa. U ming hozirgi holatidan qochishni, uzoqlashishni istasa-da, buning iloji yo'q. U endi istasa-da, hech qachon avvalgi holiga qaytolmaydi, bir umr vijdon azobida qovrilishga mahkum bo'ldi: "Butun tanam, o'ttiz yildan beri mavjud vujudimning har bir uzvi, har bir a'zoyim go'dak uchun motam tutardi" [2] Endi unga qilmishidan, qotilligidan, farzandkushligidan beixtiyor adadsiz pushaymonlik chekish qismati bir umrlik hamroh bo'ladi.

Q.Yo'ldoshev o'zining "Yoniq so'z" kitobiga kirgan "Kichik janrdagi katta izlanishlar" maqolasida 2001-yilning eng esda qoladigan hikoyalari Salomat Vafoning "Unutilgan ayol" asari ekanligini aytadi: "Salomat Vafo o'z asarlarida so'zni avaylab, puflab ishlatmaydi. Kuydiruvchi so'zni ham, muzlatuvchi so'zni ham o'rni kelsa, ayamay qo'llayveradi. Shuning uchun ham uning qalamidan chiqqan timsollar bir qadar sovuqroq, bir muncha yoqimsizroq bo'ladi [2].

Xulosa va takliflar. Bugungi nasrimizda S.Vafoning o'ziga xos o'rni, o'z aytar so'zi bor. Adiba asarlarining aksariyatida ayol ruhiy kechinmalari, ko'ngil jilvalariga e'tibor kuchli, qalbida bir dunyo orzu tilaklari, intilish niyatlari bo'lgan har biri o'ziga xos qahramonlar tasvirlanganligi jihatidan ular o'zaro mushtaraklik va alohidalik kasb etadi. Salomat Vafo insoniy xarakterlarning fojiasini ko'rsatishga ko'proq ahamiyat qaratadi. Salomat Vafo ijodining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u har bir asarda obrazlarni real talqin qilganda qahramonning ruhiy kechinmalarini izohlaganda adabiy jarayonni ishlatishda real holatini saqlab qolgan. Hikoyada ayolning fojiasi bor bo'y-basti bilan ko'rsatilganligini, adib mahoratining yuksakligini ko'rishimiz mumkin. S.Vafo odamlararo munosabatni jamiki murakkabliklari bilan aks ettirishga urinadi, inson zotiga sirli xilqat sifatida yondoshib, uning taqdiridagi izohlash mushkul bo'lgan chigalliklarni tushunishga urinadi. Uning qahramonlari ko'pincha o'ylovchi, fikrlovchi, ma'nan baland, nozik tuyg'ular egasi bo'lgan insonlar. Adiba kitobxon didining yuksakligi, sezimlarining ingichkaligi, so'z zalvorini his qilish salohiyatiga ishonadi. Kechinma va tuyg'ularni moddiylashtirish, har bir so'zni joyida qo'llash, holatlarni manzaralantirish, ramz va ishoralar tilida so'zlash, chigal o'ylar-u mubham iztiroblar, beadoq ishtibohlarga haqidagi samimiy tasvirlar ana shu ishonchdan oziqlanadi. S.Vafo nasrining falsafiy mohiyati teran, insonparvarlik mazmuni chuqurdir. Adibaning hayotiy illatlar barham topishiga umidi kuchli. Shu boisdan ham noroziligini keskin qutbiy munosabatda ifodalashga intiladi.

ADABIYOTLAR

1. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. - Тошкент, Янги аср авлоди, 2006.
2. Саломат Вафо. Қора бева. – Тошкент, Янги аср авлоди, 2009.
3. Олимов М. Фоживий пафоснинг айрим ўзига хосликлари. “Ўзбек тили ва адабиёти” журналы, 2005 йил, 3-сон, 6-бет.
4. Жўракулов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. Илмий-назарий тадқиқотлар, адабий-танқидий мақолалар. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2015.
5. Ғаниев И. Достоевскийни тушуниш ёки мангу бедорлик сири. – Т.: 2005, “ФАН”, 98-бет.
6. Назар Эшонқул. Мендан “Мен”гача. -Тошкент, Академнашр, 2014.



УДК: 384.579

Саодат Юлдашева,

Преподаватель кафедры русского языка Самаркандского государственного университета

E-mail: saodatyuldasheva@inbox.ru

На основе рецензии кандидата педагогических наук, доцента Ахмедовой Мукаддас Ходиметовны

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РУССКОГО ЯЗЫКА И ДРУГИХ ЯЗЫКОВ МИРА: СХОДСТВА И РАЗЛИЧИЯ

Аннотация

В данной научной статье проводится сравнительный анализ русского языка и других языков мира. Рассматриваются сходства и различия в грамматике, лексике, фонетике и синтаксисе и подчеркиваются уникальные особенности русского языка. В целом, статья дает полное представление о том, как русский язык сравнивается с другими языками мира и какие преимущества и недостатки он имеет.

Ключевые слова: Лексика, фонетика, синтаксис, акцент, интонация, японская культура, лексическая особенность.

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE RUSSIAN LANGUAGE AND OTHER LANGUAGES OF THE WORLD: SIMILARITIES AND DIFFERENCES.

Annotation

This scientific article presents a comparative analysis of the Russian language and other languages of the world. It examines similarities and differences in grammar, vocabulary, phonetics, and syntax, emphasizing the unique features of the Russian language. Overall, the article provides a comprehensive overview of how the Russian language compares to other languages of the world and what advantages and disadvantages it possesses.

Key words: Lexicon, phonetics, syntax, accent, intonation, Japanese culture, lexical feature.

RUS TILI VA DUNYONING BOSHQA TILLARINI QIYOSIY TAHLIL QILISH: O‘XSHASHLIK VA FARQLAR

Аннотация

Ushbu ilmiy maqolada rus tili va dunyoning boshqa tillari qiyosiy tahlili berilgan. Grammatika, lug‘at, fonetika va sintaksisdagi o‘xshashlik va farqlar ko‘rib chiqiladi va rus tilining o‘ziga xos xususiyatlariga urg‘u beriladi. Umuman olganda, maqola rus tilini dunyoning boshqa tillari bilan qanday solishtirishi va uning qanday afzalliklari va kamchiliklari borligi haqida to‘liq tasavvur beradi.

Kalit so‘zlar: Lug‘at, fonetika, sintaksis, urg‘u, intonatsiya, yapon madaniyati, leksik xususiyat.

Введение. Каждый язык мира имеет свои особенности, которые делают его уникальным и отличают от других языков. Язык - это не просто средство общения, но и отражение культуры, истории и образа мышления народа, который им владеет.

Одной из основных особенностей языка является его фонетика. Каждый язык имеет свои звуки, интонации и ритм, которые отличают его от других языков. Например, в некоторых языках существуют звуки, которые отсутствуют в других, что делает их произношение для носителей других языков сложным.

В методике преподавания русского языка как иностранного существуют универсальные приемы и принципы, помогающие иностранным учащимся усваивать и осваивать русский язык, но при всей своей универсальности в каждой аудитории они реализуются по-разному. Каждый раз, знакомясь с новой группой, преподаватель, опираясь на уже разработанные и зарекомендовавшие себя методики, намечает для себя тактику и стратегию преподавания русского языка именно в данной аудитории, что способствует наиболее эффективному и быстрому освоению русского языка иностранцами.

Наибольший интерес представляет процесс освоения грамматики русского языка. Небезызвестен тот факт, что грамматика русского языка признается иностранцами одной из самых сложных, так как имеет большое количество категорий и такие части речи, которые отсутствуют в других языках. Самое сложное в процессе изучения русского языка иностранцами – это

освоение категорий рода и падежа у существительных и прилагательных, категорий спряжения и вида у глаголов, а также таких частей речи, как причастие и деепричастие в совокупности всех их категорий и форм.

В любой аудитории обучение русскому языку должно проходить с учетом определенных лингвистических принципов РКИ. Назовем основные: во-первых, принцип системности языка, рассматривающий язык как систему, состоящую из взаимосвязанных элементов разных уровней. Реализация данного принципа предполагает изучение языковых единиц с точки зрения их коммуникативной и функциональной значимости для выражения различных смыслов; изучение грамматики в связи с лексикой для выявления лексико-семантических особенностей языковых единиц в процессе их функционирования; изучение морфологии в совокупности с синтаксисом, что позволяет вводить в речь учащихся словосочетания и предложения, определяемые условиями общения. Во-вторых, принцип концентризма, предполагающий изучение языка на основе концентров – относительно замкнутых циклов.

В русском языке существует богатая система грамматических категорий и морфологических форм. Одна из особенностей русского языка – это его широкий набор падежей. Русский язык имеет шесть падежей: именительный, родительный, дательный, винительный, творительный и предложный. Падежи определяют роль слова в предложении и его синтаксическую функцию.

В отличие от русского языка, английский язык имеет более простую систему морфологии. Он имеет

меньше грамматических категорий и морфологических форм. Например, английский язык имеет только два числа (единственное и множественное) и два рода (мужской и женский).

Наличие трех групп глаголов в родном языке иностранных учащихся также способствует адекватному пониманию ими такого понятия, как исключение. В португальском языке есть группа нерегулярных глаголов, которая соотносится студентами с группой глаголов-исключений в русском языке. Такое распределение языковых единиц изучаемого языка накладывается на систему глаголов родного языка, и путем их сравнения студенты формируют для себя свою систему русского глагола, приближенную в понимании к системе родного языка.

Глаголы в английском языке имеют меньше форм, чем в русском языке. Они спрягаются по лицу и числу, а также имеют несколько временных форм, таких как прошедшее, настоящее и будущее время. Однако английский язык не имеет такого разнообразия видов глаголов, как русский язык.

Например, приступая к изучению глагола как части речи, мы обязательно условно собираем глаголы в группы и маркируем их как группы «Е» и «И» (I и II спряжение соответственно). Это позволяет иностранным учащимся провести параллели как между языками, так и между формами глагола внутри изучаемого языка. Это тот случай, когда особенно эффективен в процессе обучения РКИ сознательно-сопоставительный метод, предполагающий именно осознанное изучение явлений иностранного языка и их сопоставление с явлениями родного языка.

Русский и английский языки имеют различный словарный состав. В русском языке больше слов, чем в английском, и это связано с историческим развитием и культурными особенностями народов, говорящих на этих языках. Например, в русском языке есть много слов, связанных с русской культурой, традициями и историей, которых нет в английском языке.

В английском языке есть много звуков, которых нет в русском языке. Некоторые из этих звуков могут быть трудными для носителей русского языка, так как они не присутствуют в их родном языке. Это может привести к тому, что носители русского языка будут иметь акцент при говорении на английском языке.

В китайском языке используются тоновые высоты для выражения различных значений. Например, одно и то же слово может иметь разные значения в зависимости от того, какой тон используется. Это делает китайский язык очень сложным для изучения для людей, которые не привыкли к такому способу выражения.

В испанском языке ударение на слове может изменять его значение. Например, слово "papa" может означать "картофель", а слово "papá" - "папа". Это может привести к недопониманию при общении на испанском языке, если носитель языка не уделяет достаточного внимания ударению на слове [1].

Акцент и интонация — это важные фонетические особенности каждого языка, которые могут влиять на понимание и коммуникацию между носителями разных языков.

Например, в английском языке акцент может сильно отличаться в зависимости от региона, откуда человек родом. Так, британский акцент может звучать совершенно по-другому, чем американский или австралийский. Это может привести к трудностям при общении между носителями разных акцентов.

Интонация также может иметь большое значение в языке. Например, в китайском языке тоновые высоты

могут менять значение слова, что делает его произношение очень важным. В русском языке интонация может отражать эмоции и настроение говорящего.

В испанском языке ударение на слове может также менять его значение, что делает его правильное произношение очень важным. В японском языке интонация может отражать уважение и вежливость, что связано с культурой этой страны.

Изучение акцента и интонации в различных языках может помочь лучше понимать другие языки и избежать недопонимания при общении на иностранных языках. Также это может помочь улучшить произношение и связность речи на изучаемом языке [2].

Культурологические особенности также могут отразиться в фонетических особенностях языка. Например, в японском языке используются много слов, которые отражают уважение и вежливость, что связано с культурой этой страны. Эти слова могут иметь свои особенности произношения, что делает японский язык еще более сложным для изучения.

Сравнительный анализ языков позволяет лучше понимать их особенности и научиться использовать их наилучшим образом. Это особенно важно для людей, которые изучают иностранные языки для коммуникации с носителями других языков.

К тому же, фонетические особенности могут иметь большое значение в повседневной жизни. Например, в японской культуре интонация может отражать уважение и вежливость, что связано с культурой этой страны. В некоторых странах правильное произношение может быть необходимо для успешной карьеры или общения в обществе [3].

Грамматические особенности языков — это то, что делает каждый язык уникальным и отличным от других языков мира. Сравнительный анализ этих особенностей может помочь лучше понимать культуры и традиции других стран и народов. Например, в английском языке существует множество временных форм, которые могут быть использованы для передачи различных значений и оттенков смысла. В русском языке грамматика также имеет большое значение, особенно в падежах и склонениях слов.

В китайском языке грамматика может быть очень простой, поскольку этот язык использует упрощенные формы глаголов и существительных. В японском языке грамматика может быть очень сложной, поскольку этот язык использует много форм и суффиксов для передачи различных значений и оттенков смысла.

В японском языке грамматика может быть очень сложной, поскольку этот язык использует много форм и суффиксов для передачи различных значений и оттенков смысла. Например, в японском языке существует много форм глаголов, которые могут быть использованы для выражения различных временных значений и оттенков смысла.

Кроме того, грамматические особенности могут иметь большое значение в быту. Например, в некоторых языках правильное использование форм множественного числа может быть необходимо для успешной карьеры или общения в обществе. Изучение грамматических особенностей языков может помочь лучше понимать другие языки и избежать недопонимания при общении на иностранных языках. Также это может помочь улучшить грамматическую правильность и связность речи на изучаемом языке [4].

Лексические особенности языков — это то, что делает каждый язык уникальным и отличным от других языков мира. Сравнительный анализ этих особенностей

может помочь лучше понимать культуры и традиции других стран и народов.

Одной из особенностей, которая выделяет языки друг от друга, является лексика. Различные языки имеют свои уникальные слова и выражения, которые определяют, как мы можем выразить свои мысли и чувства.

Например, в английском языке существует множество слов, которые могут иметь несколько значений в зависимости от контекста. Это может быть сложно для иностранцев, которые изучают английский язык, поскольку они должны запомнить большое количество слов и выражений, чтобы грамотно использовать язык [5].

В русском языке лексика также имеет большое значение, особенно в использовании различных синонимов и антонимов. Например, в русском языке существует много слов, которые могут быть использованы для передачи одного и того же значения, и правильный выбор слова может быть сложным для иностранцев.

В китайском языке лексика может быть очень простой, поскольку этот язык использует упрощенные формы слов и выражений. Например, китайский язык имеет меньше слов, чем английский или русский языки, и многие слова могут быть использованы для передачи различных значений.

В японском языке лексика может быть очень сложной, поскольку этот язык использует много иероглифов и кана для передачи различных значений и оттенков смысла. Например, в японском языке существует много иероглифов, которые могут быть использованы для выражения различных значений и оттенков смысла, а в некоторых языках правильное использование определенных слов может быть необходимо для успешной карьеры или общения в обществе.

Изучение лексических особенностей языков может помочь лучше понимать другие языки и избежать недопонимания при общении на иностранных языках. Также это может помочь улучшить словарный запас и связность речи на изучаемом языке [6].

В заключение можно сказать, что сравнительный анализ русского языка и других языков мира показывает, что каждый язык имеет свои уникальные особенности, но также имеет много общего с другими языками. Изучение этих сходств и различий может помочь в изучении иностранных языков и расширении кругозора. Русский язык, несмотря на свою сложность, имеет много преимуществ и используется в качестве международного языка общения. Однако, для полного понимания культуры и общения с носителями других языков необходимо изучать их языки и культуру.

ЛИТЕРАТУРА

1. Зализняк А.А., "Русский язык и языковая личность". М.: Наука, 2003.
2. Шмелев Д.Н., "Сравнительный анализ русского языка и английского языка". М.: Наука, 2010.
3. Трубоч С.И., Сравнительный анализ фонетических систем русского, французского и китайского языков. Вестник РУДН., 2023.
4. Горяев П.А., "Сравнительный анализ русского языка и японского языка". М.: Наука, 2018.
5. Богдасарова А. А., Сравнительный анализ русского и английского языков: сборник трудов конференции. Научное сообщество студентов: материалы VIII Междунар. студенч. науч.-практ. конф. Чебоксары: 2016.
6. Бахтина С. И., Сходство и различия русского и других языков как факторы, определяющие эффективность освоения русского языка как иностранного студентами-инофонами. Материалы V Междунар. науч.-практ. конф. Чебоксары, 2015 г.
7. Методика преподавания русского языка иностранцам / Под ред. С.Г. Бархударова. – М.: Изд-во Московского ун-та, 1967. – 302 с.
8. . Бархударова Е.Л. Основы сопоставления фонетических систем изучаемого и родного языков в контексте обучения произношению // Вестник Московского университета. Серия 9. Филология. 2015. № 3. С. 139–154. https://vestnik.philol.msu.ru/issues/VMU_9_Philol_2015_3
9. Арзютова С.Н. Особенности обучения фонетической стороне речи русского языка как иностранного студентов из Китая в Пермском государственном гуманитарно-педагогическом университете // Проблемы романо-германской филологии, педагогики и методики преподавания иностранных языков. 2020. Вып. 16. С. 7-11.
10. Юцзя Чжу. Сопоставление состава согласных звуковых единиц в русском и китайском языках в контексте обучения китайцев русскому произношению // Филологические науки. Вопросы теории и практики. 2017. № 2 (68) в 2-х ч. Ч. 1. С. 210-215.